

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AGRONOMIYA VA BIOTEXNOLOGIYA FAKUL‘TETI

«BIOLOGIYA» KAFEDRASI

DASIYOROV FAZLIDDIN ZAYNIDDINOVICH

«Buxoro viloyati “Jayron” ekologik markazi yuksak o‘simliklari va ularning
ahamiyati»

**5140100 - Biologiya ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kvalifikatsiyasini
olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**BMI kafedraning №.... sonli qarori
... may 2019 y bilan himoyaga ruxsat etilgan**

Kafedra mudiri, dots. _____ M.M. To‘raev

Fakul’tet dekani, dots. _____ A.Q. Qodirov

Ilmiy rahbar, dots. _____ H.Q. Esanov

Buxoro – 2020

MUNDARIJA

Kirish	
1.BOB. Buxoro viloyatining tabiiy geografik tavsifi va tadqiqot metodlari	
1.1. Geografik oʻrni	
1.2. Iqlimi va geologiyasi	
1.3. Tuprogʻi va yer osti suvlari	
1.4. Oʻsimliklari	
1.5. Tadqiqot manbai va metodlari	
2. BOB. Jayron ekologik markazi oʻsimliklarining tahlili va konspekti.	
3. BOB. “Jayron” ekomarkazining endem oʻsimliklari	
4. BOB. Ekomarkaz yuksak oʻsimliklarining ahamiyati.	
Xulosa.	
Foydalanilgan adabiyotlar.	

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Tabiatni muhofaza qilish va biologik xilma-xillik resurslarini saqlab qolish barqaror taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Respublikamizda bioxilma-xillikni muhofaza qilish aynan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda to'laqonli amalga oshirilmoqda. Respublikada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yaxlit bir tizimdan iborat bo'lib, u bioxilma-xillikni uzoq vaqt saqlab qolishni ta'minlovchi uzluksiz ekologik zanjirga aylanadi.

Ekologik markazlar tabiiy ekosistemalarni muhofaza etishni va ularni ko'paytirib qayta tiklashning shakllaridan biri bo'lib, turli yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar va xilma-xil ekotizimlarning monitoringi olib borilishi mumkin bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Muhofaza etiladigan hududlardagi o'simliklarni inventarizatsiya qilish, yuksak o'simliklar tur tarkibining aniqlanish, mazkur hududdagi hayvonlarning o'simlik qoplamiga ta'sirini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jayron ekologik markazi 1976 yilda tashkil topgan bo'lib, asosan noyob hayvonlarni ko'paytirishga mo'ljallangan. Ammo bugungi kunda qadar ekomarkaz hududi o'simliklari to'liq o'rganilmagan va ro'yxati keltirilmagan. Shu maqsadda flora tarkibini biologik xilma-xillik saqlab turuvchi bank sifatida tadqiq etish zarur va dolzarbdir.

O'simliklar insonlar hayotida juda muhim ahamiyatga ega. Bular birgina inson hayotidagina emas, balki tabiatdagi mavjud barcha tirik mavjudotlar hayotida ham g'oyat katta ahamiyatga egadir. O'simliklar oziq - ovqat, kiyim – kechak, dori – darmon, qurilish materiallari uchun xom ashyo, yoqilg'i, chorva mollari uchun yem – xashak hisoblanadi. Qolaversa, tirik organizmlar uchun hayotiy zarur hisoblangan havoni tozalab beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Jayron ekomarkazi florasining tarkibini aniqlash va tahlil qilish, uning konspektini tuzish hamda endem va kamyob o'simlik turlarini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari. Jayron ekomarkazi florasining tarkibini aniqlash; floraning tahlilini amalga oshirish; ekomarkazning endem va kamyob turlarini aniqlash hamda ularning tarqalish xarita-sxemasini tuzish;

Tadqiqot ob’ekti Buxoro viloyatining Jayron ekomarkazi o’simliklari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti – Jayron ekomarkazi o’simlik turlarining taksonomiyasi, geografiyasi va ekologiyasi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- birinchi marta Jayron ekologik markazining florasini 46 oila 182 turkumga mansub 267 tur yuksak o’simliklardan iborat ekanligi aniqlandi va konspekti tuzildi;

- Jayron ekomarkazi uchun ilk bor *Bunium chaerophylloides* (Regel et Schmalh.) Drude, *Gypsophyla pilosa* Huds., *Handelia trichophylla* (Schrenk) Heimerl., *Stizolophus balsamita* (Lam.) K. Koch., *Centaurea solstitialis* L., *Carthamus turkestanicus* Popov turlari keltirildi;

- ekomarkaz florasini tarkibida 20 tur endem o’simliklar uchrashi aniqlandi.

«Jayron» ekomarkazi noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvon turlarini saqlab qolish va ko‘paytirishga ixtisoslashgan jahon miqyosida o‘ziga xos bo‘lgan ob’ekt hisoblanadi. Mazkur hududda uchraydigan o’simliklar Buxoro viloyatining bioxilma xilligini saqlash o’simliklar banki vazifasini o‘taydi. Chunki u yerda jayronni ko‘paytirish bilan birga o’simliklar hunyosi ham muhofaza qilinadi.

“Jayron” ekologik markazi Buxoro viloyatining janubi-sharqiy qismida joylashgan. Buxoro viloyati geografik jihatdan Turon provinsiyasi, Quyi Zarafshon okrugi tarkibiga kiradi. Ekomarkaz 1976 yilda 5145 gektar yer maydonida tashkil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 19 sentabrdagi 212-sonli “O‘zbekiston Respublikasida 2008-2012 yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish harakat dasturi haqida”gi qaroriga muvofiq Ekomarkaz

hududi yanada kengaytirilib, hozirgi kunga kelib unga qo'shimcha 9369 gektar yer qo'shib berildi[18].

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, «Jayron» ekomarkazida 1988 yildan boshlab «Jayronlarni muhofaza qilish, tiklash va xo'jalikda qo'llash shakllarini ishlab chiqish» mavzusida ilmiy ish olib borila boshlandi. Bu bilan bir vaqtda «Jayronning sahro o'simlik qoplamiga ta'siri» mavzusida botanik ishlar bajarilgan.

Ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati iborat bo'lib, 81 betdan tashkil topgan.


1-BOB. BUXORO VOHASINING TABIIY GEOGRAFIK TAVSIFI

1.1. Geografik o‘rni

Buxoro viloyati hududi Zarafshon daryosining deltasida joylashgan. Uning siyosiy va ma'muriy chegaralari bir muncha murakkab. Viloyat shimoli-g'arb tomondan qisqa masofada Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston respublikasi bilan chegaradosh. Shimol va sharq tomondan esa katta masofada Navoiy viloyati halqasi bilan o'ralgan. Janubi-sharq tomondan Qashqadaryoning Qarshi cho'llari bilan tutash. Viloyatning janubi –g'arbi chegaralari juda katta masofada Turkmaniston davlati bilan bog'lanadi. Bu yerda chegara Amudaryoga o'ng tomondan yondoshib boradi va Doyaxotin-Qizilrabot oralig'ida (80 km) esa daryo o'zani bo'ylab o'tadi.

Viloyat hududining maydoni – 40 ming kv.km. Mazkur hudud Turon tekisligining sharqiy bo'lagida, Zarafshon daryosining quyi qismida joylashgan bo'lib, janubi-g'arbiy Qizilqum tarkibiga kiradi. Buxoro viloyatining janubiy-sharqida "Jayron" ekomarkazi joylashgan. U Buxoro shahridan 42 km uzoqlikda.

Buxoro viloyati yassi tekisliklardan iborat bo'lib, shimoliy-sharqdan janubi-g'arbga tomon qiyalab boradi. Vohaning shimoli-sharqida joylashgan Shofirkon bo'g'zida mutlaq balandlik 290 metr bo'lsa, janubi-g'arbida joylashgan Jondor bo'g'zida esa 203 metr, Amudaryo sohillarida 178 metrni tashkil qiladi. Buxoro viloyatining atroflariga nisbatan markaziy qismlarida bir muncha ko'tarilgan Gala Osiyo va Romitan ko'tarilmalari bor. Vohaning janubi-g'arbiy qismida eng kam qiya bo'lish kuzatilib 8-10 km masofagacha, 80-90 sm kenglikda cho'zilib boradi.



1-rasm. Jayron ekomarkazi xaritasi

1.2. Iqlimi va geologiyasi

Buxoro vohasining iqlimi o'ziga xos xususiyatga ega. Uning hududi okean va ochiq dengizlardan minglab kilometr uzoqlikda bo'lganligi uchun tabiati tipik qurg'oqchil o'lkalar qatoriga kiradi. Bunday iqlimli o'lkalarning bahor fasli kuz fasliga nisbatan issiq bo'ladi [11].

Buxoro vohasi ichki havzaga kiradigan o'lkalardan bo'lib, mo'tadil iqlim mintaqasidan subtropik iqlim mintaqasiga o'tish chegarasida joylashgan. Geografik jihatdan bunday o'rnashish iqlimning shakllanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Buxoro vohasi iqlimi yozda quruq tropik havo massalari, qishda esa shimoldan, mo'tadil kengliklardan keladigan salqin havo massalari ta'siri ostida shakllanadi.

Voha iqlimi bir necha omillarning o'zaro hamkorligi ta'sirida vujudga keladi. Lekin o'lka hududining geografik o'ri bu borada yetakchi ahamiyatga molikdir. Buxoro hududi O'rta Osiyo cho'llarining salkam o'rtasidan o'rin olgan bo'lib,

Janubiy (subtropik) cho'llarga xos iqlimiy xususiyatlarga egadir. Xulosa qilib aytganda, bu hudud uchun keskin kontinental cho'l iqlimi xarakterlidir [9].

Kecha bilan kunduz, qish bilan yoz haroratlari o'rtasidagi keskinlik, nisbatan sernam, injiq bahor, uzoq (VI–XI oylar), quruq, jazirama issiq, o'ta yorug' yoz, qisqa (X–XI oylar) va turg'unsiz kuz, iliq ba'zida ayozli muqim bo'lmagan qish iqlimning asosiy belgilaridir. Viloyat serquyosh o'lkalaridan biri hisoblanadi. Yil davomida quyoshli damlar 2800-3000 soatga yetadi (Toshkentda 2852, Termizda 3053 soat). Quyoshdan keladigan radiatsiyaning yalpi miqdori 150-160 kkal. ga teng. Foydali haroratning, ya'ni o'rtacha kunlik musbat haroratning 10 darajadan ortiq bo'lgan yillik yig'indisi 4800-5100 darajaga yetadi. Bu hol o'ta issiqsevar madaniy o'simliklar yetishtirish imkoniyatini yaratadi. Vohada eng sovuq muddat yanvar, eng issiq esa iyul oylari hisoblanadi.

Mazkur hududda tabiiy namlik yetarli emas. Atmosfera, yog'inlarning yillik miqdori 90-150 mm. ni tashkil qiladi. Yer yuzidan mumkin bo'lgan parlanish 2000 mm. gacha yetadi. Bu jihatdan, Buxoro hududi o'ta qurg'oqchil (arid) zonaga mansubdir. Yog'inlar aksariyat hollarda yomg'ir tarzida namoyon bo'ladi. Qor qoplami surunkali va qalin bo'lmay, uzoq saqlanmaydi. Yog'inlarning yil davomida taqsimlanishi nihoyatda notekisdir. Bahor nisbatan eng sernam fasl bo'lib, yillik yog'inning 45-55 foizi shu muddatga to'g'ri keladi. Yoz o'ta quruq. Havoning nisbiy namligi juda pasayadi, iyul-avgust oylarining ba'zi kunlarida bu ko'rsatkich 10-20 foiz kamayadi.

O'lkamiz iqlimida mahalliy shamollarning alohida o'rni bor. Ma'lumki, Yer sharining hamma joylarida shamollarni kuzatish mumkin. Lekin ularning ta'siri aynan cho'l zonasida kuchli namoyon bo'ladi. Bu yerdagi issiq, qurg'oqchil iqlim va yarim yalang'och qaqragan tuproq yuzasi shamollarning yaratuvchilik kuchiga qulay imkoniyatdir.

Umuman olganda, viloyat iqlimi resurs sifatida bebaho tabiiy boylikdir. Ayniqsa, quyoshli damlarning, foydali haroratning yetarlicha bo'lishi o'lka iqlimining ijobiy sifatleri hisoblanadi.

Buxoro vohasi cho‘l bilan chegaralanganligi sababli uning hududida o‘sovchi o‘simliklarning bioekologiyasiga shamol kuchli ta’sir qiladi. Ayniqsa, garmsel shamollari uzoq davom etgan yillarda sho‘rlangan va qum bosgan yerlar kengayadi. Voha va yaylov o‘simliklarini garmseldan saqlash uchun ihota daraxtzorlari “Yashil qalqon” sifatida tashkil etilgan.

Hudud tekisliklardan iborat bo‘lib, o‘ziga xos murakkab geologik tarixga ega. Bu zamin epigersin (gresindan keyingi) platforma ustida joylashgan. Dastavval paleozoy erasigacha bu joy ham O‘rta Osiyo o‘rnidagi serharakat geosinklinal dengiz havzasidan iborat bo‘lgan. Qalin dengiz yotqiziqlarining to‘plana borishi bilan birga, tektonik harakatlar jonlanib turgan. Kembriy davrida shamol shimoli-g‘arb tomonga yo‘nalgan, natijada qator chuqur tektonik yoriqlar hosil bo‘lgan. Paleozoy erasining ikkinchi yarmida ro‘y bergan qudratli gersing burmalanishi nisbatan osoyishta bo‘lgan tektonik vaziyatni tubdan o‘zgartirib yuborgan.

Yuqori to‘rtlamchi davrda Zarafshonning, asosan, uchinchi terrasasi shakllanadi. Bunga Quyimozor platosi etaklari, Buxoro vohasiga shimoli-g‘arb tomondan yondosh yerlar kiradi [4]. Yotqiziqlar orasida mayda chag‘irtosh, qum, loy va gil tuproqlar uchraydi.

To‘rtlamchi davrning eng oxiri hisoblangan golotsen (Zarafshon kompleksi) davri yotqiziqlari katta maydonlarda tarqalgan. Zarafshonning birinchi va ikkinchi terrasalari, qadimgi daryolarning quruq o‘zan-qayirlari shu davrga mansubdir. Echkiliksoy, Daryosoy, Moxandaryo, Qashqadaryo kabi irmoq va tarmoqlarning quruq o‘zanlarini yondosh yerlar, To‘dako‘l – Xojkobi pastqamliliklari, Buxoro vohasining o‘rni golotsen davri jinslari bilan qoplangandir.

Amudaryo, Zarafshon va Qashqadaryolarning bir-biridan ajralishi golotsenning oxirida ro‘y beradi. Arxeolog A. Muxammadjonovning [7] xulosasiga ko‘ra, miloddan oldingi II ming yillikda Zarafshonning Moxandaryo orqali Amudaryoga quyilishi barham topgan. Uzluksiz sug‘orish tufayli hosil bo‘lgan Buxoro va Qorako‘l vohalaridagi sug‘orma qatlam, eng yosh jinslardir. Ularning qalinligi sug‘orilish davriga ko‘ra, 1-3 metr, ayrim joylarda esa undan

ortiqdir. Buxoro shahri hududida madaniy qatlamning 18,5 metrga yetishi va shahar yoshining 2500 yilga teng ekanligi arxeologlar tomonidan aniqlangan.

1.3. Tuprog'i va yer osti suvlari

Ma'lumki, tuproq tabiatning eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib, o'zida jonli va jonsiz tabiiy borliqni mujassam qilgan hosiladir. Viloyat hududida cho'l zonasiga xos tuproqlar tarqalgan bo'lsa-da, ular bir butun yaxlit maydonlar hosil qilmaydi. Tuproqlarning tiplari ona jinsining xususiyati, joyning reliefi, sizot suvlarining kimyoviy tarkibi va chuqurligi kabi omillarga binoan almashib turadi. O'zlashtirilganlik darajasiga ko'ra tuproqlar ikkita guruhga (cho'l va voha) ega.

Cho'l quruq tuproqlari orasida sur tusli qo'ng'ir, cho'l qumli, taqir, taqirli tuproqlar va sho'rxoklar keng tarqalgan. Cho'l qumli tuproqlardan hozirgi vaqtda vohaning ayrim joylarida sug'oriladigan dehqonchilikda foydalanilmoqda. Ayniqsa, vohaning Jondor, Romitan, Peshku va G'ijduvon tumanlarida cho'l qumli tuproqlarning yangidan o'zlashtirilgan qismida paxta, g'alla, beda hamda boshqa madaniy ekinlar yetishtirilmoqda.

Sur tusli qo'ng'ir tuproqlar, odatda, topografik jihatdan baland bo'lgan maydonlarda (past tog'lar, platolar, qadimgi yuzalarda – Qorako'l, Dengizko'l platolari, Gazli dahasi, Quljuqtog' etaklari kabi joylarda) tarkib topgan. Mutaxassislar bu tipni toshloqli cho'l tuprog'i deb qaraydilar. Uning kesmasida tosh-shag'al aralashmalari mo'l bo'lib, pastki qatlami gipsli bo'ladi. Unumdorligi past, tarkibida chirindi miqdori 0,21-0,56 foizni tashkil qiladi.

Qumli cho'l tuproqlari va o'simlik qoplamiga ega bo'lmagan qumli maydonlarning ko'lami juda katta. Tuproq kesmasi bo'sh va g'ovak qum qatlamidan iborat. Chirindi kam (0,27-0,66 foiz). Ular sho'rlanmagan tuproqlar qatoriga kirsa-da, reliefning murakkabligi va sochma qumlardan tashkil topganligi bois o'zlashtirish uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

Taqir tuproqlar mexanik tarkibining og'irligi, tekis yuzali relefga ega bo'lganligi bilan farqlanib turadi. Taqirning yuza qatlami, odatda, zich suv

o'tkazmas qatlarga ega bo'ladi. Bu tuproqlar, odatda, sho'rlangan, ozuqa moddalarga nisbatan boyroq. Chirindi miqdori 0,41-1,06 foiz atrofida bo'lib, sug'orma dehqonchilik uchun bir muncha qulayliklarga egadir.

Sho'rxoklar nisbatan pastqam, sho'rlangan sizot suvlarining yer yuziga yaqin bo'lgan joylarida keng tarqalgan. Yer osti suvlaridagi tuzlarning kapilyar naylar orqali yuqoriga ko'tarilishi sho'rxoklarning hosil bo'lishidagi yetakchi omildir. Tuproq eritmasida tuzlarning miqdori 3-20 foiz va undan ortiq bo'ladi. Sho'rxoklarning po'rsildoq, qatqaloqli, ho'l kabi turlari uchraydi.

Sug'oriladigan yerlardagi voha tuproqlari yuqorida qayd qilingan tuproqlar zaminida vujudga kelgan bo'lib, o'zlashtirilganlik darajasi va agroximik xususiyatlari bilan farqlanadi. Buxoro, Qorako'l vohalaridagi asosiy maydonni allyuvial o'tloq tuproqlar tashkil qiladi. Ularning tuproq kesmasi, odatda, qatlamli bo'lib, sug'orma yotqiziqlardan tarkib topgan. Uzoq yillar davomida ekilishi va meliorativ tadbirlar o'tkazilishiga qaramasdan, unumdorligi pastdir. Bunga yog'inlar, sug'orma suv ta'sirida tuproqlardagi ozuqa moddalarning yuvilib ketishi ham sabab bo'ladi. Chirindining asosiy qismi haydalma qatlamda (1-1,5 foiz) bo'lib, pastga tomon keskin kamayib ketadi. Sug'orma tuproqlar turli darajada sho'rlangan. Bunga vohalarning Zarafshon daryosi deltasida joylashganligi relefdagi nishablikning yetarli emasligi, bug'lanish miqdorining yuqoriligi asosiy sabablardandir. Sho'rlanmagan tuproqlar maydoni juda kam. Ular faqat Buxoro vohasining yuqori qismidagi tumanlarda (G'ijduvon, Shofirkon) 10-15 foizni tashkil qiladi, xolos [3].

Qadimiy Buxoro vohasi to'g'risida Abu Bakr Narshaxiy quyidagi fikrlarni bildirgan: "Hozirgi Buxoro o'rnanishgan joylar ilgarilari botqoqlik bo'lib, uning ba'zi yerlarida to'qayzor va daraxtzorlar bo'lgan. Bu Samarqand tomonidan keladigan Mosaf daryosi suvlari hisobidan sodir bo'lgan. Bu daryo ko'p yerlarni yuvib, yemirib, loyqalarni olib kelishi natijasida botqoqliklarning o'rnini to'lib qolgan. Natijada hozirgi Buxoro o'rnanishgan joy asta-sekinlik bilan tekislikka aylangan".

Bu hudud cho'l zonasida joylashganligi tufayli doimiy oqadigan suv manbalariga ega emas. Miqdori kam bo'lgan atmosfera yog'inlari aksariyat maydonda oqimlar hosil qilmasdan, yer ostiga shimiladi, parlanadi va o'simliklarning o'sishiga sarf bo'ladi.

Buxoro vohasi Zarafshon daryosining quyi qismida joylashgan bo'lib, bu daryoning ming yillar davomida oqizib kelgan loyqa yotqiziqlari tufayli vujudga kelgan. Uning toshqinlaridan hosil bo'lgan irmoqlar, ko'llar va ko'lmaklar voha tabiatining shakllanishi va uning o'zlashtirilishida muxim rol o'ynagan [7].

Buxoro vohasining suvga bo'lgan talabi azaldan tog'li yerlardan to'yinadigan Zarafshon daryosi hisobidan qondirilgan. Zarafshon daryosi Buxoro vohasida qadimgi Vobkentdaryo, Shahrud, Qorako'ldaryo, Moxandaryo va Tayqir kabi bir necha tarmoqlar hosil qilib, butun vohani suv bilan ta'minlagan. Hozir ham daryo suvi bilan 2% maydonlarimiz sug'oriladi. Ayniqsa, Shofirkon, G'ijduvon va Peshku tuman aholisi shu suvdan foydalanadi [10].

Daryoning yuqori qismida suvga bo'lgan talabning orta borishi tufayli viloyat hududiga yetib keladigan Zarafshon suvi yillar davomida kamayib borgan. Karmana tog' oralig'i yo'lagida uning o'rtacha yillik suv sarfi o'tgan asrning 80-yillarigacha 100-120 kub. metr sekundni tashkil qilgan bo'lsa, 90-yillar boshlariga kelib, 70 kub. metr sekund atrofida bo'ldi, xolos [9].

Hozirgi kunda daryo suvi Navoiy viloyati hududi doirasida batamom tugaydi. Zarafshonning Buxoro viloyatidan o'tgan qismi Markaziy Buxoro zovuri deb nomlangan, oqava va kollektor suvlarini oqizadi.

Buxoro viloyati obikor yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida zovurlar sistemasi yaratilgan. Ularning aksariyati, ochiq zovurlardir. Har yili bir yarim kub. km. hajmdagi zovur va oqava suvlar vohadan tashqariga chiqariladi. Bu turli darajada sho'rlangan suvlarning kichik qismi Katta-tuzkon ko'li, Porsonko'l zovuri orqali Amudaryo o'zaniga borib quyiladi. Qolgan asosiy qismi Dengizko'l, Qoraqir, Og'itma kabi botiqlarga – tashlama ko'llarga to'planadi. Xomaki

hisoblarga ko‘ra, bu sun‘iy ko‘llarda har yili 5 mln. t. atrofida tuz va turli xil zararli kimyoviy moddalar to‘planadi. Bu hol ekologik vaziyatga salbiy ta‘sir etmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning janubi-g‘arbiy qismidagi vohalardan chiqarilayotgan oqava va zovur suvlarini Orol dengiziga oqizish maqsadida “Sho‘rdaryo” bosh zovuri qurilmoqda. Uning bir qismi Buxoro viloyati hududidan o‘tadi. Kelgusida o‘lka doirasidagi zovur suvlarini baliqchilik va tabiatni muhofaza qilish manfaatlarini inobatga olgan holda “Sho‘rdaryo”ga yo‘naltirish hamda ekologik muhitni tubdan yaxshilash choralarini ko‘rishni jadallashtirish lozim.

Buxoro viloyati zaminida yer osti suvlarining katta jamg‘armasi bor. Hidrogeologik xususiyatlariga ko‘ra, ularni ikkita qatlamga ajratish mumkin. Birinchisi, yer betiga yaqin joylashgan, dastlabki suv o‘tkazmas qatlamgacha bo‘lgan sizot suvlaridir. Ikkinchisi esa, turlicha chuqurlikda joylashgan qatlamlararo suvlardir. Sizot suvlari to‘yinishi, gidroximik xususiyatlariga ko‘ra joylarda farqlanadi, ularni voha va cho‘l zonasi sizot suvlariga ajratish mumkin. Vohalarda ular aksariyat sug‘orma suvlar hisobidan hosil bo‘ladi va yer betiga yaqinligi, chuchukligi bilan farqlanib turadi. Voha doirasida bunday suvlar ko‘p joylarda iste‘mol uchun yaroqli hisoblanadi. Buxoro vohasining yuqori qismlarida qisman sug‘orishda ham ishlatiladi. Cho‘l zonasida sizot suvlari zonal xususiyatlarga ega bo‘lib, ular, odatda, 5-10-40 metrgacha chuqurda joylashgan va turli darajada sho‘rlangandir. Kam sho‘rlangan (5 gramm litrgacha) suvlardangina chorva mollarini sug‘orishda foydalanish mumkin.

1.4. O‘simliklar dunyosi

Bu yerda Buxoro vohasi o‘simliklari to‘g‘risida qisqacha, umumiy to‘xtalib o‘tamiz. Voha o‘simliklari geografik tarqalishi jixatidan ikki guruhga: ichki qumliklar va sug‘oriladigan maydonlarda tarqalgan o‘simliklarga bo‘linadi.

Voha ichki qumliklarida tarqalgan o‘simliklarning aksariyat vakillari cho‘l o‘simliklari hisoblanadi. Ular orasida Chenopodiaceae, Polygonaceae,

Tamaricaceae, Brassicaceae, Fabaceae, Asteraceae, Poaceae oila vakillari ko'p miqdorda uchraydi.

Bu oilalarning ko'p tarqalgan turlariga *Agriophyllum latifolium*, *Salsola sclerantha*, *Salsola micranthera*, *Corispermum lehmannianum*, *Haloxylon persicum*, *H. aphyllum*, *Calligonum caput-medusae*, *Tetracme recurvata*, *Strigosella scorpioides*, *Astragalus villosissimus*, *Ammothamnus lehmannii*, *Alhagi persarum*, *Koelpinia turanica*, *Senecio subdentatus*, *Stipagrostis pennata*, *Schismus arabicus* va boshqalar kiradi.

Voha qumliklarida tabiiy holda o'sadigan daraxtlardan *Haloxylon persicum*, *H. aphyllum*, *Salsola richteri*, *Salsola paletzkiana* kabilar uchraydi.

Bu hududlarda bir yilliklar, efemer va efemeroidlar *Roemeria refracta*, *Hypecoum parviflorum*, *Holosteum umbellatum*, *Alyssum turkestanicum* var. *desertorum*, *Tetracme recurvata*, *Gagea bergi*, *G. divaricata*, *Ixiolirion tataricum* ham mavjud bo'lib, yoz boshlanishi bilan vegetatsiyasini tugatadi.

Viloyatning sug'oriladigan maydonlarida namlik, oziq moddalari va ekologik sharoitning juda qulayligi tufayli bu yerlar o'simlik turlariga juda boy. Sug'oriladigan maydonlarida, asosan, manzarali, madaniy o'simliklar va ular bilan birga, begona o'tlar keng tarqalgan. Hammaga ma'lum madaniy o'simliklar to'g'risida to'xtalmaymiz. Buxoro vohasi florasida begona o'tlar asosiy o'rinni egallab, barcha turlarning yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Hozirgi kunda vohada ularning 38 oilaga mansub, 214 turi uchraydi.

Voha florasida keng tarqalgan begona o'tlarga *Cynodon dactylon*, *Cyperus rotundus*, *Portulaca oleracea*, *Amaranthus retroflexus*, *Chenopodium album*, *Capsella bursa-pastoris*, *Trifolium pratense*, *Tribulus terrestris*, *Cichorium intybus* va boshqalar kiradi. Vohaning turli maydonlarida begona o'tlarning tarqalish darajasini X.X. Guzairov ishlarida ko'rish mumkin.

1.5 Tadqiqot manbai va metodlari

Dala tadqiqotlari ekomarkaz hududida yilning turli mavsumlarda davomida olib borildi. Ekomarkazning tabiiy ya'ni, qumli, sho'rxok, gipsli, toshli tuproqlari

va sun'iy landshaftlarning (ekinlar orasi, atroflari, marzalar, ariq bo'ylari, yo'l bo'ylari) yuksak o'simliklarining tur tarkibi o'rganildi. Tadqiqotlar davomida 300 dan ortiq gerbariy namunalari tayyorlandi.

Turlar tarkibini aniqlash va gerbariy namunalarini yig'ishda marshrutli [23] va yarim statsionar [24] metodlardan foydalanildi. O'simliklarning ilmiy nomlari "Opredelitel rasteniy Sredney Azii" [12] va www.ipni.org. [26] elektron resursi bo'yicha, taksonlarning mualliflari Brummit R.K., Powell C.E. [25] qo'llanmasi asosida keltirildi.

Begona o'tlarni o'rganishda "O'zbekiston begona o'tlarining zamonaviy tizimi va qo'sh (binar) nomlari" [1] kabi ilmiy manbadan foydalanildi. Oilalar ketma-ketligi A.L. Takhtajan [28] tizimi asosida keltirildi.

Muhofazaga muhtoj, kamayib borayotgan o'simlik turlarini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"dan [16] foydalanildi.

2-BOB. JAYRON EKOLOGIK MARKAZI O‘SIMLIKLARINING TAHLILI VA KONSPEKTI.

“Jayron” ekomarkazining flora tarkibi bo‘yicha keltirilgan ilk adabiyot manbalarida 37 oilaga mansub 160 turdagi yuksak o‘simliklar uchrashi keltirilgan [17]. B. Mardonovning [6] geobotanik tadqiqotlar davomida 200 ga yaqin o‘simlik turi uchrashini qayd etgan. Ekomarkaz hududini Buxoro vohasida tutgan o‘rni va muhofaza etiladigan xududlar toifasiga kirishi maxsus floristik tadqiqotlarni o‘tkazilishi lozim ekanligini asoslaydi. Shu maqsadda 2017-2020 yillardagi maxsus izlanishlar flora tarkibini ancha boy ekanligi ko‘rsatdi. Olib borilgan dala tadqiqotlari davomida mazkur hududda 46 oila, 182 turkumga mansub 267 tur yuksak o‘simlik uchrashi aniqlandi. Ro‘yxatda keltirilgan har bir tur “Jayron” ekomarkazi hududidan muallif tomonida yig‘ilgan gerbariy namunalari bilan asoslangan holda keltirildi.

Statistik tahlil natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, ekomarkaz florasida O‘rta Osiyoning qurg‘oqchil cho‘l flolarining xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Mazkur hudud florasida tarkibini 99,6% (266 tur) gulli o‘simliklar (Magnoliophyta) tashkil qildi (1-jadval).

1-jadval


Yirik taksonomik birliklar tahlili

Bo‘lim	Soni					
	turlar	%	turkum	%	oilalar	%
Pinophyta	1	0,37	1	0,5	1	2,2
Magnoliophyta:	266	99,6	181	99,5	45	97,8
<i>Magnoliopsida</i>	220	82,7	146	80,7	38	82,6
<i>Liliopsida</i>	46	17,3	35	19,3	7	17,4
Jami	267	100	182	100	46	100

Ikki urug‘pallali o‘simliklar (Magnoliopsida) 38 oila, 146 turkumga mansub 220 turni, bir urug‘pallalilar (Liliopsida) 7 oila, 35 turkumga mansub 46 turni

tashkil qildi. Qarag'aytoifa o'simliklari esa 1 oila, 1 turkumga mansub 1 turdan iborat. Magnoliyatoifa o'simliklarda yirik taksonomik birliklarning umumiy nisbati 1:4,7 ni tashkil etdi. Bu holat umumiy qonuniyatga yaqin. Yer shari florasida magnoliyasimonlar 78,9% ni, bir urug'pallalilar 19,1% ni tashkil etib, 1:4,1 nisbatni namoyon qiladi. Har qanday florada oiladan yirik bo'lgan taksonlardagi nisbatlar yuqoridagi holat singari bo'ladi.

O'rganilayotgan floraning asosiy xususiyatlarini namoyon qiladigan ko'rsatkichlardan biri yetakchi oilalarning ketma-ketligi hisoblanadi (1-rasm).



2-rasm. Jayron ekomarkazi florasidagi yetakchi oilalarning spektri

Yetakchi oilalar sifatida 5 turdan ortiq turga ega oilalar tanlandi va ular tarkibida 186 tur aniqlandi (floraning 66,9%). Bu ko'satkich Qizilqumning Bukantog' florasida [14] 68,5%, Qoraqalpoq florasida [22] 73,3 % tashkil etadi. Mazkur oilalar orasida Asteraceae yetakchilik qiladi. Uning tarkibida 32 turkumga mansub 45 tur uchraydi va hudud florasining 16,9% tashkil qildi. Muallifning chop etilmagan ma'lumotlariga ko'ra Buxoro vohasi florasida bu oila 80 tur (15,1 %) tashkil qiladi. Har ikki ko'rsatkichlarning bir-biriga juda yaqinligi tadqiqotlarni metodik jihatdan to'g'ri olib borilganligi hamda Buxoro vohasidagi

ayrim lokal floralar umumiy floraning asosiy xususiyatlarini aks ettirishini ko'rsatadi. Asteraceae oilasining yetakchilik xususiyatini turkumlar sonining ko'pligi (32 turkum) va *Cousinia* (6 tur), *Lactuca* (4 tur) turkumlar tarkibi bilan izohlash mumkin.


Poaceae o'z tarkibiga 32 turni (12,0%) birlashtirgan. Oila tarkibida uchraydigan 16 tur faqat qumlarda, 10 tur sug'oriladigan ekin maydonlarida, 4 tur har ikki joyda ham uchraydi. Oilaning yetakchilik xususiyatini belgilashda ekinlar orasida begona o't sifatida uchraydigan turlarining salmoqli o'rnini bor. Ushbu oilaning yetakchilik qilishi turkumlar sonining ko'pligi va *Eremopyrum* (4 tur), *Bromus* (3), *Poa* (2), *Aeluropus* (2) tarkibidagi turlar soni bilan belgilanadi.

Chenopodiaceae 20 turkumga mansub 28 turni (10,5%) tashkil qilib, vohada uchinchi o'rinni egallaydi. Oilaning yetakchilik xususiyatini Turon provinsiyasiga kiradigan boshqa floralarda [22], [5], [13], [15] ham qayd etilganligini ko'rish mumkin. Bu oilaning yetakchilik xususiyati *Salsola* (4 tur), *Chenopodium* (3), *Atriplex* (3) turkumlarida turlarning ko'p uchrashi bilan asoslanishi mumkin.

Keyingi o'rinlarni Brassicaceae 19 turkum, 26 tur (9,7%), Fabaceae 8 turkum, 23 tur (8,6%), Boraginaceae 8 turkum, 11 tur (4,1%), Caryophyllaceae 6 turkum, 8 tur (3,0%), Polygonaceae 4 turkum, 7 tur (2,6%) va Apiaceae 5 turkum, 6 tur (2,2%) bilan egalladi. Qolgan 37 oila tarkibida 1 tadan 5 tagacha turlar uchrab, 81 turni (33,1%) tashkil qildi. Yetakchi oila spektri bu florani O'rta Osiyoning janubiy flora tipiga tegishli ekanligini ko'rsatdi.

Jayron ekomarkazi florasining yetakchi turkumlari *Astragalus* (13; 4,9%), *Cousinia* (6; 2,2%), *Lepidium* (4; 1,5%), *Strigosella* (4; 1,5%), *Euphorbia* (4; 1,5%), *Zygophyllum* (4; 1,5%), *Lactuca* (4; 1,5%), *Convolvulus* (4; 1,5%), *Eremopyrum* (4; 1,5%) kabilar hisoblanadi (2-rasm). Bu turkumlar jami turlarning 17,6% ini (47 tur) tashkil qildi. Flora tarkibidagi *Astragalus* turkumi yetakchiligi O'rta Osiyo florasiga uchun tipik xususiyat hisoblanadi. Bu holatni Qizilqumdagidagi floralar tarkibida ko'rish mumkin [22, 5, 13, 15]. *Cousinia* turkumi yetakchiligi hududning turli geomorfologik xususiyati bilan bog'liq va Turon

provinsiyasining boshqa floralarida ham ko‘rish mumkin [14, 5]. Qolgan turkumlar *Lepidium*, *Eremopyrum*, *Euphorbia*, *Zygophyllum*, *Lactuca*, *Convolvulus*, *Strigosella* tarkibida 4 turni birlashtirgan va qurg‘oqchil floraga xos xususiyatni o‘zida mujassamlashtirgan.



2-rasm. Jayron ekomarkazi o‘simliklarining yetakchi turkumlar tahlili

Shunday qilib, turkumlar spektri hudud florasining Turon provinsiyasi xususiyatlarini o‘zida aks ettirganini ko‘rsatdi.

Bundan tashqari olib borilgan zamonaviy floristik tadqiqotlar flora tarkibi bo‘yicha ilgari keltirilgan ma’lumotlarni aniqlashtirish imkoniyatini berdi. Xususan, ekomarkaz hududida A. Fayziev va boshq.[17] tomonidan olib keltirilgan ayrim turlar, jumladan *Allium caspium* (Pall.) M. Bieb., *Astragalus iliensis* Bunge, *Matthiola chenopodiifolia* Fisch. et C.A. Mey. va boshq. mazkur hududda uchramasligi aniqlandi. Shu bilan birga tadqiqotlar davomida flora tarkibiga kirib kelgan yangi turlar aniqlandi. Ushbu turlar Buxoro vohasi uchun ham ilk bor qayd etildi. Quyida ularning tarkibi keltirilgan:

Apiaceae

Bunium chaerophylloides (Regel et Schmalh.) Drude. Nat. Pflanzenfam. 3(8): 194 1898. Buxoro vohasi. Buxoro-Qarshi avtomobil yo‘l bo‘yi. Chap tomon. №398. 12.05.2009. N 39 35 371, E 064 42 047 d.s.b. 216 m. Bu tur Sirdaryo vodiysi, Farg‘ona vodiysi, Pomir-Oloy, Tyan-Shan, Badxizda uchraydi.

Caryophyllaceae

Gypsophyla pilosa Huds. Philos. Trans. 56: 252 1767. Buxoro vohasi. Jayron ekomarkazi. Yo‘l bo‘yi. Mayda toshli qum tuproq №697. 23.04.2016. N 39 37 555, E 064 39 662 d.s.b. 239 m. O‘rta Osiyoda Qoraqum, Pomir-Oloy, Kopetdog‘, Badxizda tarqalgan.

Asteraceae

Handelia trichophylla (Schrenk) Heimerl. Oesterr. Bot. Z. 71: 215. 1922. Buxoro vohasi. Jayron ekomarkazi. Buxoro-Qarshi yo‘l bo‘yi. Shag‘alli tuproq. №440 13.04.2015. N 39 37 555, E 064 39 662 d.s.b. 239. Tur O‘rta Osiyoning Tomdi, Muyunqum, Farg‘ona, Toshkent, Qarshi, Jung‘or Olatovi, Tyan-Shan, Pomir-Oloy, Badxiz hududlarida tarqalgan.

Stizolophus balsamita (Lam.) K. Koch. K. Koch in Linnaea 24. 1851. 423 1851. Buxoro vohasi. Jayron ekomarkazi. Yo‘l bo‘yi. Qaynog‘och tepaligidan 2 km sharqda. №745. 19.05.2016. N 39 35 371, E 064 42 047 d.s.b. 216 m. O‘rta Osiyoda Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Mirzacho‘l, Tyan-Shan, Pomir-Oloy, Badxiz, Kopetdog‘da uchraydi.

Centaurea solstitialis L. Sp. Pl. 2: 917. 1753. Buxoro vohasi. Jayron ekomarkazi. Yo‘l bo‘yi. Qaynog‘och tepaligidan 2 km sharqda. №734. 19.05.2016. N 39 35 371, E 064 42 047 d.s.b. 216 m. Mazkur tur Turkmaniston, Surxandaryo, Pomir-Oloy, Kopetdog‘, Badxiz hududlarida tarqalgan.

Carthamus turkestanicus Popov in Trudy Uzbeksk. Gosud. Univ. Im. Alisera Noavoi, ser. 2 27. 1941. Buxoro vohasi. Jayron ekomarkazi. Yo‘l bo‘yi. Qaynog‘och tepaligidan 2 km sharqda. №746. 19.05.2016. N 39 35 371, E 064 42 047 d.s.b. 216 m. O‘rta Osiyoda Farg‘ona, Turkmaniston, Qoraqum, Tyan-Shan, Pomir-Oloy, Badxiz, Kopetdog‘da uchraydi.

Shuningdek, ekomarkaz florasi tarkibida O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga kiritilgan turlar *Oligochaeta vvedenskyi* (Popov) Tscherneva, *Cousinia sogdiana* Bornm., *Tulipa lehmanniana* Merckl. ex Bunge [16] uchrashi aniqlandi.

Shunday qilib, “Jayron” ekomarkazi hududida olib borgan tadqiqotlar nafaqat O‘zbekiston florasida hozirgacha flora tarkibi noma’lum bo‘lib kelayotgan hududlardan birining zamonaviy konspektini yaratilishi, ayni paytda muhofaza etiladigan tabiiy xududlarning yana birida yuksak o‘simliklar tarkibini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Aynan shu holat flora to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini kengaytirish, inventarizatsiya bosqichini yakunlash va bu asosda tadqiqotlarni navbatdagi bosqichga ko‘tarilishiga imkon beradi.

Jayron ekologik markazi o‘simliklarining konspekti.

PYNOPHYTA – ГОЛОСЕМЕННЫЕ – QARAG‘AYTOIFA OILA. EPHEDRACEAE – ЭФЕДРОВЫЕ – QIZILChADOShLAR.

1. Turkum. *Ephedra* L.- Эфедра – Qizilcha.

1. *Ephedra strobilacea* Bunge. Эфедра шишконосная – qubador qizilcha Buta. Turon. Qumli, shag‘alli, toshli tuproqlar. Buxoro tumani, Kogon tumani. Dorivor, yem-xashak, oshlovchi

MAGNOLIOPHYTA - ПОКРЫТОСЕМЕННЫЕ - MAGNOLIYATOIFA MAGNOLIOPSIDA – ДВУДОЛНЫЕ – MAGNOLIYASIMONLAR

OILA. BERBERIDACEAE – БАРБАРИСОВЫЕ - ZIRKDOShLAR

2. Turkum. *Leontice* L. – Леонтитсе – Yersovun.

2. *Leontice eversmannii* Bunge. Леонтитсе Эверсманна – Эversman yersovuni. Ko‘p yillik. Eron-O‘rta Osiyo. Qumli, shag‘alli, gipsli, toshli tuproqlar. Buxoro tumani. Asal shirali, dorivor, zaharli, yem-xashak, oziqbop.

OILA. RANUNCULACEAE – ЛЮТИКОВЫЕ – AYIQTOVONDOShLAR.

3. Turkum. *Ceratocephala* Moench – Рогоглавник – Otashak, uchma.

3. *Ceratocephala falcata* (L.) Rers. Рогоглавник серповидный – ilmoqtumshuq uchma. Ko‘p yillik. Qadimiy O‘rtaer. Qumli, qumoq, gilli va sho‘r tuproqlar. Buxoro, Kogon, Peshku, Romitan, Jondor, G‘ijduvon tumanlari. Dorivor, zaharli.

4. Turkum. *Clematis* L. – Ломонос – Ilono‘t.

4. *Clematis orientalis* L Ломонос восточный - sharq ilono‘ti. Buta. Sharqiy Qadimiy O‘rtaer. Ariq, daryo bo‘ylari, to‘qaylar, ekinlar atrofi. Buxoro shahri, G‘ijduvon, Peshku, Romitan, Jondor tumani. Dorivor, zaharli, asal shirali.

5. Turkum. *Consolida* Gray – – Консолида – Konsolida.

5. *Consolida camptocarpa* (Fisch. & C.A.Mey. ex Ledeb.) Nevski (= *Delphinium camptocarpum* Fisch. & C.A.Mey). Живокость согнутоплодная - Tasmacho‘p, ko‘kboshchitir. Bir yillik. O‘rta Osiyo. Qumli va mayda toshli tuproqlar. Buxoro, Kogon tumanlari. Yem-xashak.

6. *Consolida leptocarpa* Nevski (= *Delphinium leptocarpum* Nevski). Живокость тонкоплодная – ingichka mevali konsolida. Bir yillik. O‘rta Osiyo. Gilli va qumli tuproqlar. Buxoro, Kogon, G‘ijduvon tumani. Yem-xashak.

OILA. PAPAVERACEAE – МАКОВЫЕ – КО‘KNORDOSHLAR

6. Turkum. *Papaver* L. – Мак – Ko‘knor.

7. *Papaver pavoninum* Schrenk. . Мак павлиний – tovus ko‘knori, lolaqizg‘aldoq. Bir yillik. Eron-O‘rta Osiyo. Qumli va gilli tuproqlar, ekinzorlar, tashlandiq yerlar. Buxoro, Kogon tumanlari. Dorivor, bo‘yoqbop, zaharli, yem-xashak.

7. Turkum. *Roemeria* Medik. – Ремерия – Qizg‘aldoq.

8. *Roemeria hybrida* (L.) DC. Ремерия фиолетовая – Binafsharang qizg‘aldoq. Bir yillik. Eron-O‘rta Osiyo. Yo‘l bo‘ylari, chag‘illi, mayda qumli, shag‘alli tuproqlar. Buxoro, Kogon, Peshku, Romitan, Jondor, G‘ijduvon tumanlari. Dorivor, zaharli.

9. *Roemeria refracta* (Stev.) DC. Ремерия отогнутая – egilgan qizg'aldoq. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Toshli, shag'alli, qumli-gilli, qumli tuproqlar. Buxoro, Kogon, Peshku, Romitan, Jondor, G'ijduvon tumanlari. Bo'yoqbop, dorivor, zaharli, manzarali.

8. Turkum. *Hypocoum* L. – Гипекоум – Bo'g'immeva.

10. *Hypocoum parviflorum* Kar. et Kir. (= *Hypocoum pendulum* L.) Bull. Гипекоум мелкоцветный - maydagulli bo'g'immeva. bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Mayda qumli tuproqlar, ekin maydonlari atroflari. Buxoro, Kogon, Peshku, Romitan, Jondor, G'ijduvon tumanlari. Asal shirali, dorivor, zaharli.

9. Turkum. *Fumaria* L. – Дымянка – Shotara.

11. *Fumaria vaillantii* Loisel. Дымянка Вайяна - Vayyan shotarasi. Bir yillik. Pontik-Sharqiy Qadimiy O'rtaer. Ariq va yo'l bo'yi, ekinzorlar, tashlandiq yerlar. Buxoro, Jondor tumanlari. Dorivor.

OILA. PORTULACACEAE – Р ПОРТУЛАКОВЫЕ – SEMIZO'TDOSHLAR

10. Turkum. *Portulaca* L. – Портулак – Semizo't.

12. *Portulaca oleracea* L. Портулак огородный - sabzavot semizo'ti. Bir yillik. Palearktika. Ekinzorlar, tashlandiq yerlar, daryo, ariq va yo'l bo'ylari. Buxoro vohasi. Dorivor, oziqbop

OILA. CARYOPHYLLACEAE – ГВОЗДИЧНЫЕ - ChINNIGULDOSHLAR

11. Turkum. *Acanthophyllum* C.A. Mey. – Колючелистник – Yetmak.

13. *Acanthophyllum pungens* (Bunge) Boiss. (= *A. albidum* Schischk.). Колючелистый колючий – tikanli yetmak. Ko'p yillik. Eron-Turon. Qumli va toshli tuproqlar. Kogon, G'ijduvon tumani. Dorivor, zaharli, manzarali.

12. Turkum. *Gypsophila* L. – Качим – Tog'chitir.

14. *Gypsophila heteropoda* Freyn. Качим разноножковый - har xil bandli tog'chitir. Bir yillik. Eron-Turon. Qumli, shag'alli, gipsli tuproqlar. Buxoro tumani. Foydalanilmaydi.

15. *Gypsophila pilosa* Huds Качим волосистый – tukli tog'chitir. Bir yillik. O'rta Osiyo. Toshli-qumli, gipsli tuproqlar. Buxoro tumani. Yem-xashak.

13. Turkum. *Holosteum* L. – Костенец – Qalampiro't.

16. *Holosteum polygamum* Koch. Костенец липкий – serpusht qalampiro't. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy O'rtaer. Gilli va qumli tuproqlar. Buxoro tumani. Foydalanilmaydi.

17. *Holosteum umbellatum* L. Костенец зонтичный – soyabonnamo qalampiro't. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy O'rtaer. Qumli tuproqlar. Buxoro, Kogon, Peshku, Romitan, Jondor, G'ijduvon tumanlari. Dorivor.

14. Turkum. *Silene* L. – Смолевка – Zo'rcha.

18. *Silene nana* Kar. et Kir. Смолевка карликовая – pakana zo'rcha, qumisparak. Bir yillik. Eron-Turon. Gilli va qumli tuproqlar. Buxoro, Jondor, Romitan, Peshku, Qorako'l tumanlari. Dorivor, yem-xashak, asal shirali, zaharli.

15. Turkum. *Spergularia* (Pers.) J. Presl et C. Presl – Торичник – Spergulariya.

19. *Spergularia salina* (L.) Jaub. et C. Presl. Торичник солончаковый – sho'r spergulariya. Bir yoki ikki yillik. Golarktika. Daryo, ko'l, ariq, yo'l bo'ylari, sho'r tuproqlar. Kogon, Peshku, G'ijduvon, Vobkent, Qorako'l tumanlari. Yem-xashak.

OILA. AMARANTHACEAE – АМАРАНТОВЫЕ

GULTOJIXO'ROZDOSHLAR

16. Turkum. *Amaranthus* L. Щирица – Machin.

20. *Amaranthus retroflexus* L. Щирица запрокинутая – qayrilgan machin, yovvoyi gultojxo'roz, eshaksho'ra. Bir yillik. Plyuregional. Dalalar, bog'lar,

tashlandiq yerlar, ekinlar orasi, ariq va yo'l bo'ylari. Buxoro vohasi. Asal shirali, yem-xashak, dorivor.

21. *Amaranthus viridis* L. Щирица зеленая – yashil machin. Bir yillik. Plyuregional. Ariq va yo'l bo'ylari, tashlandiq yerlar, ekinlar orasi, dalalar, bog'lar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

17. Turkum. *Anabasis* (Schrenk) Benth. – Ежовник – Biyurg'un.

22. *Anabasis turkestanica* Korovin et Iljin. Ежовник туркестанский – turkiston biyurg'uni. Yarimbutacha. Turon. Sho'r, taqir, gilli tuproqlar. Buxoro tumani. Dorivor, asal shirali, zaharli.

18. Turkum. *Atriplex* L. – Лебеда – Olabuta.

23. *Atriplex hastata* L. Лебеда копьевидная – nayzasimon olabuta. Bir yillik. Pontik-Qadimiy O'rtaer. Ekinlar orasi, tashlandiq yerlar, ariq va yo'l bo'ylari. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

24. *Atriplex dimorphostegia* Kar. et Kir Лебеда диморфная – cho'l olabutasi. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Qumli tuproqlar, taqirlar atroflari. Buxoro, Kogon, Peshku, Romitan, Jondor, G'ijduvon tumanlari. Yem-xashak.

25. *Atriplex tatarica* L. Лебеда татарская – tatar olabutasi, oddiy olabuta, eshaksho'ra. Bir yillik. Yevropa-Sibir-Qadimiy O'rtaer. Ariq va yo'l bo'ylari, ekinzorlar atrofi, bog'lar, dalalar, tashlandiq yerlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak, oziqbop.

19. Turkum. *Bassia* All. – Бассия – Bassiya.

26. *Bassia hyssopifolia* (Pall.) Kuntze Бассия иссополистная – ilmoqli qo'ng'irsho'ra. Bir yillik. Pontik-Qadimiy O'rtaer. Yo'l va ariq bo'ylari, dalalar, bog'lar, tashlandiq, ekinlar atrofi. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

20. Turkum. *Ceratocarpus* L. – Рогач — Ebalak.

27. *Ceratocarpus arenarius* L. (= *Ceratocarpus utriculosus* Bluket). Рогач сумчатый – xaltali ebalak. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Qumli, sho'rxok, chag'illi tuproqlar. Buxoro, Kogon, Peshku, Romitan, Jondor, G'ijduvon tumanlari. Zaharli, yem-xashak.

21. Turkum. *Chenopodium* L. – Марь - Sho'ra.

28. *Chenopodium album* L. Марь белая – oq sho'ra. Bir yillik. Plyuregional. Ekinzorlar, tashlandiq yerlar, bog'lar, yo'l, ariq, kanal bo'ylari. Buxoro vohasi. Dorivor, yem-xashak, oziqbop, bo'yoqbop.

29. *Chenopodium glaucum* L. Марь сизая – g'uborli sho'ra. Bir yillik. Plyuregional. Sho'r tuproqlar, ariq va zovur bo'ylari, ko'llar atroflari, tashlandiq yerlar, ekinzorlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak, vitaminli.

30. *Chenopodium rubrum* L. Марь красная – qizil sho'ra. Bir yillik. Yevropa-Sibir-O'rta Osiyo. Sho'r tuproqlar, ariq va zovur bo'ylari, ko'llar atroflari, tashlandiq yerlar, ekinzorlar. Buxoro vohasi. Dorivor, yem-xashak, oziqbop.

22. Turkum. *Climacoptera* Botsch. – Климакоптера – Baliqko'z.

31. *Climacoptera lanata* (Pall.) Botsch. Климакоптера шерстистая – sertuk baliqko'z. Bir yillik. O'rta Osiyo. Sho'rxoklar, yo'l bo'ylari, tashlandiq yerlar, ekinzorlar atrofi, to'qaylar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

23. Turkum. *Corispermum* L.– Верблюдка – Qumtariq.

32. *Corispermum korovinii* Iljin. Verblyudka korovina – korovin qumtarig'i. Bir yillik. O'rta Osiyo. Qumli tuproqlar. Buxoro, Kogon, Peshku, Romitan, Jondor tumanlari. Yem-xashak.

33. *Corispermum lehmannianum* Bunge. Верблюдка лемана – leman qumtarig'i. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Barxan qumlar. Romitan tumani. Yem-xashak.

24. Turkum. *Cornulaca* Delile – Корнулака – Kornulaka.

34. *Cornulaca korshinskyi* Litv. Корнулака коржинского – korjinskiy kornulakasi. Bir yillik. Turon. Qumli, gilli va sho'rxok tuproqlar. Buxoro, Kogon tumanlari. O'rta Osiyo endemi. Yem-xashak.

25. Turkum. *Girgensohnia* Bunge – Гиргенсония – Sag'an.

35. *Girgensohnia oppositiflora* (Pall.) Fenzl. Гиргенсония супротивноцветковая – uchqanot sag'an. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Yo'l

bo'ylari, sho'rxoklar, gilli, shag'alli tuproqlar, ekinlar atroflari. Buxoro, Kogon tumanlari. Zaharli, yem-xashak.

26. Turkum. *Halimocnemis* C. A. Mey. – Галимокнемис – Buzoqbosh.

36. *Halimocnemis latifolia* Iljin. Галимокнемис широколистный – kengbarg buzoqbosh. Bir yillik. Qizilqum. Qumli-chag'illi, gilli-qumli tuproqlar. Buxoro, Kogon, G'ijduvon tumanlari. Qizilqum endemi. Yem-xashak.

37. *Halimocnemis macrantha* Bunge. Галимокнемис крупнопильниковый – yirikchangdonli buzoqbosh. Bir yillik. Turon. Taqirlar, qumli-chag'illi tuproqlar. Buxoro, Kogon, G'ijduvon tumanlari. O'rta Osiyo endemi. Yem-xashak.

38. *Halimocnemis pilifera* Botsch. (= *Halotis pilosa* Iljin). Галимокнемис волосистый – tukdor halotis. Bir yillik. Eron-Turon. Taqirlar, sho'rxoklar, shag'alli tuproqlar. Buxoro, Kogon tumanlari. Yem-xashak.

27. Turkum. *Halocharis* Moq. – Галохарис – Quyonjun.

39. *Halocharis hispida* (Schrenk ex C.A. Mey.) Bunge. Галохарис щетинистоволосая – dag'altuk quyonjun. Bir yillik. Turon. Ariq va yo'l bo'ylari, sho'r tuproqlar. Buxoro shahri, Buxoro va Kogon tumanlari. Yem-xashak.

28. Turkum. *Halostachys* C. A. Mey. Соляноколосник – Qorabaroq.

40. *Halostachys belangeriana* (Moq.) Botsch. Соляноколосник беланже – belanjeriya qorabarog'i. Buta. Eron-Turon. Nam va yumshoq sho'rxoklar, sho'rlangan tuproqlar, ko'llar atroflari. Buxoro shahri, Buxoro tumani. Dorivor, zaharli.

29. Turkum. *Haloxylon* Bunge – Саксаул – Saksovul.

41. *Haloxylon persicum* Bunge. Саксаул белый – oq saksovul. Daraxt. Eron-Turon. To'liqinsimon qumli va gilli tuproqlar. Peshku, Romitan tumanlari. Yem-xashak, yoqilg'i, bo'yoqbop.

30. Turkum. *Kalidium* Moq. – Поташник – Shoxilak.

205. *Heliotropium ellipticum* Ledeb. Гелиотроп эллиптический – ellipissimon geliotrop. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy Oʻrtaer. Maydaqumli tuproqlar, qumlar, toshqotishmalar. Buxoro vohasi. Zaharli.

136. Turkum. *Heterocaryum* DC. – Гетерокарий – Xeterokarium.

206. *Heterocaryum subsessile* Vatke. Гетерокарий почтисидячий – oʻtroq geterokarium. Bir yillik. Eron-Oʻrta Osiyo. Qumli, chagʻilli tuproqlar. Buxoro tumani. Foydalanilmaydi.

207. *Heterocaryum szovitsianum* (Fisch. & C.A.Mey.) A.DC. (= *Heterocaryum rigidum* A. DC.). Prodr. Гетерокарий шовича – shovis heterokariumi. Bir yillik. Eron-Oʻrta Osiyo. Mustahkamlangan qumliklar, toshli tuproqlar. Buxoro vohasi. Foydalanilmaydi.

137. Turkum. *Lappula* Moench – Липучка – Movigul.

208. *Lappula semiglaba* (Lebed) Gurke. Липучка полуголая – chalatuk movigul. Bir yillik. Eron-Turon. Qumlar, chagʻilli va toshli tuproqlar. Peshku, Jondor, Romitan, Buxoro tumanlari. Yem-xashak.

209. *Lappula spinocarpos* (Forssk.) Asch. ex Kuntze. Липучка колючеплодная – tikanmevali moviygul. Bir yillik. Oʻrtaer-Eron-Turon. Qumli, shagʻalli, toshli tuproqlar. Jondor, Buxoro, Kogon tumanlari. Foydalanilmaydi.

138. Turkum. *Nonea Medik.* – Нонея – Noneya.

210. *Nonea caspica* (Willd.) G. Don. Нонея каспийская – kaspiy nonneyasi. Bir yillik. Eron-Oʻrta Osiyo. Qumli tuproqlar, toshli tuproqlar. Buxoro vohasi. Oshlovchi, yem-xashak.

**OILA. SCROPHULARIACEAE – НОРИЧНИКОВЫЕ –
SIGIRQUYRUQDOSHLAR**

**139. Turkum. *Cistanche Hoffmanns. et Link.* – Цистанхе – Qumsoʻta,
ilonchoʻp.**

211. *Cistanche flava* (C. A. Mey.) Korsh. Цистанхе желтая – sariq ilonchoʻp. Koʻp yillik. Kavkaz-Turon-Eron. Qumli tuproqlar, qum tepaliklar, kanal boʻylari. Buxoro, Jondor, Romitan, Peshku tumanlari. Dorivor, zaharli.

140. Turkum. *Dodartia L.* – Додарция – Dodartiya.

212. *Dodartia orientalis* L. Додарция восточная – sharq echkisoqoli. Koʻp yillik. Pontik-Sharqiy Qadimiy Oʻrtaer. Yoʻl, ariq boʻylari, ekinlar orasi, bogʻlar, dalalar, xiyobonlar. Buxoro vohasi. Dorivor, asal shirali, yem-xashak.

141. Turkum. *Scrophularia L.* – Норичник – Chechakgul.

213. *Scrophularia leucoclada* Bunge. Норичник беловетвистый – oqshoxchali chechakgul. Koʻp yillik. Oʻrta Osiyo. Qumli tuproqlar, taqirlar, shagʻalli, toshli tuproqlar. Buxoro tumani. Dorivor, asal shirali, manzarali, yem-xashak.

142. Turkum. *Veronica L.* – Вероника – Veronika.

214. *Veronica campylopoda* Boiss. Вероника согнутоногая – egik bedanachoʻp. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy Oʻrtaer. Qumli va chagʻilli tuproqlar, yoʻl boʻylari. Buxoro vohasi. Vitaminli, yem-xashak.

215. *Veronica polita* Fr. Novit. Вероника скромная – silliq bedanachoʻp. Bir yillik. Eron-Oʻrta Osiyo. Ekinlar atrofi, ariq, yoʻl boʻylari, marzalar, tashlandiq yerlar. Buxoro vohasi. Foydalanilmaydi.

**OILA. PLANTAGINACEAE – ПОДОРОЖНИКОВЫЕ -
ZUBTURUMDOSHLAR**

143. Turkum. *Plantago* L. – Подорожник – Zubturum.

216. *Plantago lanceolata* L. Подорожник ланцетный – nashtarbarg zubturum. Ko‘p yillik. Golarktika. Ekin maydonlari, bog‘lar, dalalar, ariq bo‘ylari, gulzorlar, sernam yerlar. Buxoro vohasi. Dorivor, yem-xashak.

217. *Plantago major* L. Podorojnik bolshoy – yirikbarg zubturum, bargizub. Ikki-ko‘p yillik. Golarktika. Ekin maydonlari, bog‘lar, dalalar, ariq bo‘ylari, gulzorlar, sernam yerlar. Buxoro vohasi. Dorivor, yem-xashak.

OILA. LAMIACEAE – ГУБОЦВЕТНЫЕ - YalPIZDOSHLAR

144. Turkum. *Chamaesphacos* Schrenk – Шалфейчик – Marmarak.

218. *Chamaesphacos ilicifolius* Schrenk. Шалфейчик падуболистный – padubbargli marmarak. Bir yillik. Eron-Turon. Mustahkamlangan qumli tuproqlar. Buxoro vohasi. Asal shirali.

145. Turkum. *Lallemantia* Fisch. et C.A. Mey. – Лаллемантия – Mallachoy.

219. *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth. Лаллемантия ройля – royl mallachoyi. Bir yillik. Pontik-Sharqiy Qadimiy O‘rtaer. Qumli, gilli tuproqlar. Romitan, Buxoro, Peshku tumanlari. Dorivor, efir moyli.

146. Turkum. *Thuspeinantha* T. Durand.– Туспейнанта – Tuspenanta.

220. *Thuspeinantha persica* (Boiss.) Briq. Comp. Туспейнанта персидская – fors tuspenantasi. Bir yillik. Eron-Turon. Qumli, maydaqumli-shag‘alli tuproqlar. Romitan, Peshku, Buxoro, Shofirkon tumanlari. Efir moyli, yem-xashak.

147. Turkum. *Ziziphora* L. – Зизифора – Kiyiko‘t.

221. *Ziziphora tenuior* L. Зизифора тонкая – xushbo‘y kiyiko‘t, cho‘l yalpiz. Bir yillik. Yevropa-Sharqiy Qadimiy O‘rtaer. Qumli, gilli, shag‘alli tuproqlar. Buxoro, G‘ijduvon tumanlari. Dorivor, efir moyli, yem-xashak.

LILIOPSIDA – ОДНОДОЛЬНЫЕ – LOLASIMONLAR
OILA. LILIACEAE – ЛИЛЕЙНЫЕ – LOLADOSHLAR

148. Turkum. *Merendera* Ramond. – Мерендера – Sangrayquloq.

222. *Merendera robusta* Bunge. Мерендера крупная – yirik sangrayquloq. Ko'p yillik. Eron-O'rta Osiyo. Mustahkamlangan qumlar, gilli tuproqlar. Buxoro vohasi. Dorivor, zaharli.

149. Turkum. *Rhinopetalum* Fisch. ex Alexand. – Ринопеталум – Rinopetalum.

223. *Rhinopetalum karelinii* Fisch. ex D.Don. Ринопеталум карелина – karelin rinopetalumi. Ko'p yillik. Turon. Qumli, gilli, qumli-toshli tuproqlar. Buxoro tumani. O'rta Osiyo endemi. Foydalanilmaydi.

150. Turkum. *Tulipa* L. – Тюльпан – Lola.

224. *Tulipa lehmanniana* Merckl. ex Bunge. Тюльпан лемана – lemann lolasi. Ko'p yillik. Eron-Turon. Qumli, gilli, toshli tuproqlar. Buxoro tumani. Kamyoblik darajasi 3. Qizil kitob (2009). Manzarali, dorivor.

225. *Tulipa sogdiana* Bunge. Тюльпан согдийский – so'g'd lolasi. Ko'p yillik. Eron-Turon. Qumli, gilli, toshli tuproqlar. Buxoro, G'ijduvon, Shofirkon, Qorovulbozor tumanlari. O'rta Osiyo endemi. Manzarali.

OILA. IRIDACEAE – ИРИСОВЫЕ - GULSAFSARDOSHLAR

151. Turkum. *Iris* L. – Ирис - Gulsafsar

226. *Iris halophila* var. *sogdiana* (Bunge) Grubov (= *Iris sogdiana* Bunge). Ирис согдийский – so'g'd gulsafsari. Ko'p yillik. O'rta Osiyo. Qumli, gilli tuproqlar. G'ijduvon, Buxoro tumanlari. O'rta Osiyo endemi. Dorivor, yem-xashak.

227. *Iris longiscapa* Ledeb. Ирис длинностебельный – uzunproya gulsafsar. Ko'p yillik. Turon. Qumli, gilli tuproqlar. Buxoro, G'ijduvon, Shofirkon, Jondor tumanlari. O'rta Osiyo. Endemi tolali, efir moyli, yem-xashak.

OILA. AMARYLLIDACEAE – АМАРИЛИССОВЫЕ –

NARGIZDOSHLAR.

152. Turkum. *Allium* L. – Лук – Piyozi.

228. *Allium borszczowii* Regel. Лук борщова – борщов piyozi. Ko‘p yillik. Turon Qumli tuproqlar Peshku, Buxoro, Shofirkon, Romitan tumanlari. O‘rta Osiyo endemi. Bo‘yoqbop, dorivor, efir moyli.

229. *Allium sabulosum* Steven ex Bunge. Лук песчаный – qum piyoz. Ko‘p yillik. Eron-O‘rta Osiyo. Qumli tuproqlar. Peshku, Buxoro, Shofirkon, Romitan tumanlari. Oziqbop, dorivor, efir moyli.

OILA. ASPHODELACEAE – ШИПАЧЕБЫЕ – ShIRACHDOSHLAR.

153. Turkum. *Eremurus* M. Bieb. – Эремурус - Shirach

230. *Eremurus anisopterus* (Kar. et Kir.) Regel. Ширяш неравнокрылый – notengqanotli shirach. Ko‘p yillik. Eron-Turon. Qumli, gilli tuproqlar. Buxoro tumani. Dorivor, bo‘yoqbop, yem-xashak.

OILA. CYPERACEAE – ОСОКОВЫЕ – HIOLDOSHLAR.

154. Turkum. *Carex* L. – Осока – Iloq.

231. *Carex pachystylis* J. Gay. Осока толстостолбиковая – yo‘g‘ontumshuq qorabosh. Ko‘p yillik. Sharqiy Qadimiy O‘rtaer. Qumli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor tumanlari. Yem-xashak.

232. *Carex physodes* M. Bieb. Осока вздутая – illoq, rang. Ko‘p yillik. Sharqiy Qadimiy O‘rtaer. Mustahkamlangan, to‘lqinsimon tuproqlar, barxanlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

156. Turkum. *Scirpus* L. – Камыш – Qiyoq.

233. *Scirpus triqueter* L. Mant. Камыш трехгранный – uchqirra qiyoq. Ko‘p yillik. Golarktika. Suv havzalari, ariq, kanal bo‘ylari. Buxoro, Vobkent tumanlari. Foydalanilmaydi.

OILA. POACEAE – ЗЛАКОВЫЕ – BUG‘DOYDOSHLAR

156. Turkum. *Aegilops* L. – Эгилопс – Yettibo‘g‘im, qasmaldoq.

234. *Aegilops cylindrica* Host. Эгилопс цилиндрический – yettibo‘g‘im, qasmaldoq. Bir yillik. Pontik-Qadimiy O‘rtaer. Ekinlar orasi, ariq bo‘yi, yo‘l bo‘ylari. Buxoro vohasi. Yem-xashak, vitaminli.

157. Turkum. *Aeluropus* Trin. – Прибрежница – Sho‘rajriq.

235. *Aeluropus littoralis* (Gouan) Parl. Прибрежница солончаковая – tuksiz sho‘rajriq. Ko‘p yillik. Palearktika. Sho‘r tuproqlar, qum tuproqlar, suv havzalari atroflari, bo‘sh yotgan yerlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak, oshlovchi, bo‘yoqbor

236. *Aeluropus repens* (Desf.) Parl. Прибрежница ползучая – o‘rmalovchi sho‘rajriq. Ko‘p yillik. Palearktika. Qum, sho‘r tuproqlar, bo‘z yerlar, kanal atroflari. Buxoro vohasi. Dorivor, yem-xashak, oziqbop.

158. Turkum. *Arundo* L. – Арундо – Savag‘ich.

237. *Arundo donax* L. Арундо тростниковый – qamishsimon savag‘ich. Ko‘p yillik. Pontik-Qadimiy O‘rtaer. Yo‘l bo‘ylari, ekin maydonlari atrofi. Buxoro vohasi. Yem-xashak, manzarali, qurilishbop.

159. Turkum. *Avena* L. – Овес – Suli.

238. *Avena fatua* L. Овес пустой – g‘ovak suli, qorako‘za. Bir yillik. Qadimiy O‘rtaer. Ekinlar orasi, yo‘l, ariq bo‘yi, bog‘lar, dalalar, gulzorlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

160. Turkum. *Bromus* L. – Костер – Yaltirbosh.

239. *Bromus danthoniae* Trin. Костер дантона – danton yaltirboshi. Bir yillik. Qadimiy O‘rtaer. Qumli tuproqlar, ekinlar atrofi, marzalar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

240. *Bromus oxyodon* Schrenk. Костер острозубый – o‘tkirtishli yaltirbosh. Bir yillik. O‘rta Osiyo. Qumli, qumli-toshli tuproqlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

241. *Bromus tectorum* L. Костер кровельный – cho‘chqayol yaltirbosh. Bir yillik. Palearktika. Mustahkamlangan qumlar, shag‘alli, toshli tuproqlar, ariq, yo‘l

bo'ylari, ekinlar atrofi. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

161. Turkum. *Calamagrostis* Adans. – Вейник – Bug'doyiqqamish.

242. *Calamagrostis dubia* Bunge. Вейник сомнительный – bug'doyiqqamish, qalmibarg ro'vako't. Ko'p yillik. O'rta Osiyo. Ariq bo'yi, partov yerlar, to'qaylar, sernam tuproqlar. Buxoro vohasi. O'rta Osiyo endemi. Yem-xashak.

162. Turkum. *Cynodon* Rich. – Свиной – Ajriq.

243. *Cynodon dactylon* (L.) Pers. Свиной пальчатый – ranjasimon ajriq. Ko'p yillik. Qadimiy O'rtaer. Ekinlar orasi, ariq, daryo, kanal va yo'l bo'ylari, tashlandiq yerlar, to'qaylar, bog'lar, xiyobonlar. Buxoro vohasi. Dorivor, yem-xashak, vitaminli.

163. Turkum. *Digitaria* Heist. – Росичка – Beshbarmoq.

244. *Digitaria sanguinalis* (L.) Scop. Росичка кровавая – tukli beshbarmoq. Bir yillik. Qadimiy O'rtaer. Ekinlar orasi, bo'sh yotgan yerlar. Buxoro vohasi. Oziqbop, dorivor, yem-xashak.

164. Turkum. *Echinochloa* P. Beauv. – Ежовник – Kurmak.

245. *Echinochloa crus-galli* (L.) P. Beauv. Ежовник петушие просо – shamak kurmak, qora kurmak. Bir yillik. Plyuregional. Ekinlar orasi, ariq bo'ylari, dalalar, bog'lar. Buxoro vohasi. Oziqbop, yem-xashak.

165. Turkum. *Eragrostis* Host. – Полевичка – Simbriq.

246. *Eragrostis pilosa* (L.) P. Beauv. Полевичка волосистая – tukli simbriq. Bir yillik. Palearktika. Ekinlar orasi, ariq bo'ylari, bo'sh yotgan yerlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

166. Turkum. *Eremopyrum* Jaub. et Spach – Мортук – Arpaxon.

247. *Eremopyrum bonaepartis* (Spreng.) Nevski. Мортук бонапарта – bonapart arpaxoni. Bir yillik. Qadimiy O'rtaer. Qumli, gilli tuproqlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

248. *Eremopyrum distans* (Koch) Nevski. Мортук расставленный – kerilgan arpaxon. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy O'rtaer. Qumli, gilli, sho'r tuproqlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

249. *Eremopyrum orientale* (L.) Jaub. & Spach. Мортук восточный – sharq arpaxoni. Bir yillik. Qadimiy Oʻrtaer. Qumli, gilli, shoʻr tuproqlar Buxoro, Kogon, Gʻijduvon tumanlari. Yem-xashak.

250. *Eremopyrum triticeum* (Gaertn.) Nevski. Мортук пшеничный – bugʻdoysimon arpaxon. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy Oʻrtaer. Qumli, shagʻalli, gilli, shoʻr tuproq. Buxoro tumani. Yem-xashak.

167. Turkum. *Erianthus* Rich. – Эриантус – Erkak qamish.

251. *Erianthus ravennae* (L.) P. Beauv. Эриантус равеннский – raven savagʻichi, erkak qamish. Koʻp yillik. Sharqiy Qadimiy Oʻrtaer. Ariq, kanal boʻyi, sernam yerlar, marzalar, ekin dalalari atrofi. Buxoro vohasi. Yem-xashak, qurilishbop.

168. Turkum. *Henrardia* Hubb. – Генрардия – Xernardiya.

252. *Henrardia persica* (Boiss.) C. E. Hubb. Генрардия персидская – fors xenrardiyasi. Bir yillik. Eron-Oʻrta Osiyo. Qumli, gilli, chagʻilli tuproqlar. Buxoro, Kogon, Jondor, Peshku tumani. Foydalanilmaydi.

169. Turkum. *Hordeum* L. – Ячмень – Арпа.

253. *Hordeum leporinum* Link. Ячмень заячий – quyon arpa. Bir yillik. Qadimiy Oʻrtaer. Yoʻl boʻyi, ekinlar atrofi, bogʻlar, xiyobonlar, boʻsh yotgan yerlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

170. Turkum. *Lolium* V. Krecz. et Bobrov – Плевелок – Mastakcha.

254. *Lolium subulatum* (Banks et Sol.) Eig. Плевелок восточная – bigizsimon mastakcha. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy Oʻrtaer. Qumli, shagʻalli tuproqlar, taqirlar. Buxoro, Kogon, Jondor, Peshku tumanlari. Yem-xashak.

171. Turkum. *Lolium* L. – Плевел — Mastak.

255. *Lolium temulentum* L. Плевел опьяняющий – zaharli mastak. Bir yillik. Golarktika. Ekinlar orasi, ariq, yoʻl boʻylari, bogʻlar, xiyobonlar. Buxoro vohasi. Dorivor, yem-xashak, zaharli.

172. Turkum. *Phalaris* L. – Канареечник - Falaris

256. *Phalaris minor* Retz. Канареечник малый – kichkina falaris. Bir yillik. Qadimiy Oʻrtaer. Qumli va shoʻr tuproqlar. Buxoro shahri, Buxoro tumani. Yem-xashak.

173. Turkum. *Phragmites* Adans. – Тростник – Qamish.

258. *Phragmites australis* (Cav.) Trin. ex Steud. Тростник южный – oddiy qamish. Koʻp yillik. Ariq, zovur suvlari, kanal atroflari, ekinlar orasi, ekilmay yotgan dalalar. Qadimiy Oʻrtaer. Buxoro vohasi. Dorivor, yem-xashak, yoqilgʻi, qurilishbop, oziqbop.

175. Turkum. *Poa* L. – Мятлик – Qoʻngʻirbosh.

259. *Poa annua* L. Мятлик однолетний – bir yillik qoʻngʻirbosh. Bir yillik. Plyuregional. Ariq va daryo boʻylari, qumli tuproqlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

260. *Poa bulbosa* L. Мятлик луковичный – piyozli qoʻngʻirbosh. Koʻp yillik. Qadimiy Oʻrtaer. Qumli tuproqlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

176. Turkum. *Schismus* P. Beauv. – Схизмус – Mayinchoʻp.

261. *Schismus arabicus* Nees. Схизмус арабский – arab maydachoʻpi. Bir yillik. Yevropa-Qadimiy Oʻrtaer. Qumli va shagʻalli tuproqlar. Buxoro vohasi. Yem-xashak.

177. Turkum. *Secale* L. – Рожь – Boʻzchoʻp, javdar.

262. *Secale sylvestre* Host. Рожь дикая – yovvoyi javdar. Bir yillik. Palearktika. Yoʻl boʻyi, toshli, chagʻilli tuproqlar. Buxoro tumani. Yem-xashak.

178. Turkum. *Setaria* P. Beauv. – Щетинник – Qoʻnoq.

263. *Setaria viridis* (L.) P. Beauv. Щетинник зеленый – yashil qoʻnoq. Bir yillik. Palearktika. Ekinlar orasi, ariq va yoʻl boʻylari, bogʻlar, xiyobonlar. Buxoro vohasi. Vitaminli, yem-xashak.

179. Turkum. *Sorghum* P. Beauv. – Сорго – gʻumay.

264. *Sorghum halepense* (L.) Pers. Сорго аллепское – jonson gʻumayi. Koʻp yillik. Plyuregional. Ekinlar orasi, ariq boʻyi, boʻsh yotgan yerlar. Buxoro vohasi. Dorivor, zaharli, yem-xashak.

180. Turkum. *Stipa* L. – Ковыль – Qilqon.

265. *Stipa hohenackeriana* Trin. et Rupr. Ковыль гогенакера – gogenakkera chalovi. Ko'p yillik. Eron-O'rta Osiyo. Qumli va qumli-toshli tuproqlar. Buxoro tumani. Yem-xashak.

181. Turkum. *Vulpia* C.C. Gmel. – Вульпия – Vulpiya.

266. *Vulpia myuros* (L.) C.C.Gmel. Вульпия мышехвостник – sichqondum vulpiya. Bir yillik. Qadimiy O'rtaer. Qumli, gilli, chag'illi tuproqlar, yo'l bo'ylari. Buxoro tumani. Yem-xashak.

OILA. TYPHACEAE – ПОГОЗОВЫЕ - QO'G'ADOSHLAR

182. Turkum. *Typha* L. – Погроз – Qo'g'a.

267. *Typha angustifolia* L. Погроз узколистый – ingichkabarg qo'g'a. Ko'p yillik. Plyuregional. Zovur va ariq suvlari, kanal atroflari. Buxoro vohasi. Oziqbop, dorivor, yem-xashak, tolali.

3-BOB. “Jayron” ekomarkazining endem o'simliklari

“Jayron” ekomarkazidagi keltirilib ko'paytirilayotgan kamyob hayvon turlaridan jayron, sayg'oq, qulon, yovvoyi otlar, morxo'r, alqor kabilardan tashqari markaz hududida o'suvchi yuksak o'simlik turlarini muhofaza qilish, kamyob foydali o'simlik turlari bilan boyitib borish va ularning bioekologik xususiyatlarini o'rganib borish vazifalari ham rejalashtirilgan.

Mazkur ekomarkaz Buxoro vohasining janubiy-sharqiy tomonida joylashgan. Uning hududida o'suvchi o'simliklarning tur tarkibi, o'simliklar qoplamini o'rganish bo'yicha bir necha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Undagi tabiiy o'simliklarning o'ziga xosligi hududning tuproq tipi, gidrotermik rejimi kabi tabiiy muhit ta'siri natijasidir.

Buxoro vohasining umumiy maydoni 287 ming gektar bo'lib, shundan 17 ming gektari voha ichki qumliklarini tashkil qiladi. Kogon tumani hududida joylashgan “Jayron” ekomarkazi maydoni ham Buxoro vohasiga qarashlidir.

Mazkur hududda o'tkazilgan tadqiqotlardan aniqlanishicha undagi asosiy o'simliklar assotsiatsiyalarini psammofit va galofitlar tashkil etadi. Tadqiqotlar davomida "Jayron" ekomarkazi hududida 267 tur yuksak o'simliklar turlari uchrashi ma'lum bo'ldi. Aniqlangan o'simliklardan 20 turi O'rta Osiyoning endem o'simliklari hisoblanadi.

Quyida ekomarkaz hududida uchraydigan endem o'simliklarning hayotiy shakllari, respublika hududida tarqalgan joylari, o'sish joylari to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Tamarix litvinovii Gorschk. – Litvinov yulg'uni. Yulg'undoshlar oilasiga kiradigan buta o'simlik. U to'qay va sho'rxoklar atrofida o'sadi. Respublikamizning Farg'ona, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda uchraydi. Bo'yoqbop, asal shirali, yoqilg'i, oshlovchi, efir moyli.

Smirnovia turkestana Bunge.- Turkiston patlog'i. Burchoqdoshlar oilasi vakili bo'lib, bo'yi bir metr ga yetadigan buta o'simlik. Respublikamizda faqat Buxoro viloyatida uchraydi. Ekomarkazning barxan qumlarida uchraydi. O'rta Osiyo endemi. Vitaminli, dorivor, zaharli.

Astragalus villosissimus Bunge. –Singren. Burchoqdoshlar oilasiga mansub, bo'yi 70 sm ga yetadigan yarim buta o'simlik. Ekomarkazning qumli hududlarida keng tarqalgan. Respublikamizning Buxoro viloyatida va Qoraqalpog'istonda uchraydi. O'rta Osiyo endemi. Dorivor, bo'yoqbop, yem-xashak.

Astragalus unifoliatus Bunge. – bir yaproqchali astragal. Burchoqdoshlar oilasiga mansub yarim buta o'simlik. Respublikamizning Buxoro viloyatida va Qoraqalpog'istonda uchraydi. Qumli hududlarda o'sishga moslashgan. O'rta Osiyo endemi. Yem-xashak.

Ammothamnus lehmannii Bunge. – leman achchibutasi. Burchoqdoshlar oilasiga mansub butacha. Qumli, gilli-toshqotishmali tuproqlar, taqirlarda uchraydi. Oʻrta Osiyo endemi. Dorivor, asal shirali, boʻyoqbop, yem-xashak.

Allium sabulosum Kar. et Kir. – Qum piyoz. Piyozdoshlar oilasiga mansub koʻp yillik oʻt oʻsimlik. Ekomarkaz hududida kamroq tarqalgan. Respublikamizning Buxoro viloyatida va Qoraqalpogʻistonda uchraydi. Oziqbop, dorivor, efir moyli.

Calamagrostis dubia Bunge. – Bugʻdoyiq qamish, qalmibarg roʻvakoʻt. Bugʻdoydoshlar oilasiga mansub koʻp yillik oʻt oʻsimlik. Ariq, kanal boʻylarida va madaniy zonalarda oʻsadi. Bu tur Buxoro, Toshkent, Xorazm, Fargʻona, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpogʻistonda tarqalgan. Oʻrta Osiyo endemi. Yem-xashak.

Iris longiscapa Ledeb. – Uzunpoya gulsafsar. Safsardoshlar oilasiga mansub koʻp yillik oʻt oʻsimlik. Ekomarkazning qumli va qumoq tuproqlarida oʻsadi. Respublikamizda Buxoro viloyatida va Qoraqalpogʻistonda tarqalgan.

Ferula karelinii Bunge – Qum sabzi. Ziradoshlar oilasiga mansub koʻp yillik ildizmevali oʻt oʻsimlik. Toʻlqinsimon va mustahkamlangan qumliklarda oʻsadi. Respublikamiz hududida keng tarqalgan boʻlib, Buxoro Toshkent Surxandaryo viloyatlarida va Qoraqalpogʻistonda uchraydi. Efir moyli, yem-xashak.

Zygophyllum macrophyllum Cham. yet Schlecht. – Kichik tuyatovon. Tuyatovondoshlar oilasiga mansub koʻp yillik oʻt oʻsimlik. Ekomarkazning qumli hududlarida va qisman Qaynagʻoch togʻi qoldiqlari orasida oʻsadi. Respublikamizning Buxoro, Namangan, Samarqand viloyati va Qoraqalpogʻistonda tarqalgan. Asal shirali.

Zygophyllum oxyanum Boriss. – Amudaryo tuyatovoni. Tuyatovondoshlar oilasiga mansub, ildizpoyali koʻp yillik oʻt oʻsimlik. Respublikamizning barcha viloyatlarida va Qoraqalpogʻistonda uchraydi. Ekomarkazning madaniy zonasida keng tarqalgan. Dorivor, asal shirali, boʻyoqbop, zaharli.

Cousinia oxiana Tscherneva –Amudaryo karragi. Qoqio‘tdoshlar oilasiga mansub ikki yillik o‘t o‘simlik. Buxoro viloyatining mustahkamlangan to‘lqinsimon qumlarida va Surxandaryo viloyatida tarqalgan. O‘rta Osiyo endemi. Yem-xashak.

Cousinia dichotoma Bunge –Dixotomik karrak. Qoqio‘tdoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘t o‘simlik. Mazkur tur qumlarda, taqirlarda va sho‘rxoklarda o‘sadi. Buxoro, Surxandaryo viloyatlarida va Qoraqalpog‘istonda tarqalgan. O‘rta Osiyo endemi. Yem-xashak.

Consolida camptocarpa (Fisch. & C.A.Mey. ex Ledeb.) Nevski - Tasmacho‘p, ko‘kboshchitir. Ayiqtovondoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘t o‘simlik. Ekomarkazning qumli tuproqlarida o‘sadi. Respublikaning boshqa g‘ududlarida deyarli uchramaydi. Yem-xashak.

Calligonum caput-medusae Schrenk –Qizil qandim. Torondoshlar oilasiga mansub buta o‘simligi. To‘lqinsimon qumli tuproqlarda o‘sadi. Buxoro, Xorazm viloyatlarida va Qoraqalpog‘istonda tarqalgan. Ekomarkazda keng tarqalgan turlardan hisoblanadi. Oshlovchi, bo‘yoqbop, asal shirali, yoqilg‘i, yem-xashak.

Calligonum microcarpum Borszcz. –Mayda mevali qandim. Torondoshlar oilasiga mansub buta o‘simligi. Buxoro viloyatining barcha qumli tuproqlarida o‘sadi. Keng tarqalgan tur. O‘rta Osiyo endemi. Oshlovchi, yoqilg‘i, yem-xashak.

Mazkur turlar faqat O‘rta Osiyo hududida tarqalgan bo‘lib, yer sharining boshqa hududlarida uchramaydi. Ayrim turlar faqat (*Delphinium camptocarpum*, *Smirnovia turkeстана*) Buxoro viloyatida uchraydi xolos. Yuqorida keltirilgan turlar faqatgina “Jayron” ekomarkazida uchramasdan vohaning barcha hududlarida uchrashi aniqlandi.

4-BOB. Ekomarkaz yuksak o‘simliklarining ahamiyati.

Respublikamizning tabiiy boyliklari ichida uning o‘simlik xomashyolari alohida o‘rinda turadi. Bular orasida oziq-ovqat, yem-xashak, asal shira beruvchi,

oshlovchi, bo‘yoq moddalari beradigan, vitaminli, efir moyli, dorivorlik xususiyatiga ega bo‘lgan juda ko‘p qimmatli turlar bor. O‘simlik xomashyosi va resurslari uzoq davrlar mobaynida insonlar tomonidan turli maqsadlarda oziq-ovqat, qandolat, yoqilg‘i, kiyimbosh, qurilish materiallari, tabiiy bo‘yoqlar, dorilar darmon sifatida foydalanib kelgan. Shunday xususiyatga ega bo‘lgan o‘simliklar ekomarkaz hududida ham uchraydi. Masalan, ekomarkazning qumli maydonlarida tarqalgan yulg‘un, partek, shuvoq, saksovul kabi o‘simliklar.

Ilmiy manbalar tahlil qilinganda, viloyatning, ayniqsa ekomarkazning foydali o‘simliklariga bag‘ishlangan asarlar mavjud emasligi aniqlandi. O‘simliklarning foydali xususiyatlarini aniqlashda S.Ye. Yerejepov [22], H.X. Xolmatov., A.I. Qosimov [21], K. Xoliqov [20], M.M. Nabiev, R.Yu. Kazakbaev [8] va boshqa olimlar ma’lumotlaridan foydalanildi.

Foydali o‘simliklarni o‘rganishda ularning klassifikatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Ye.P. Korovin dastlab O‘rta Osiyo foydali o‘simliklarini dorivor, tolali, kauchukli, donli, dukkakli, bo‘yoqbop, moyli, efir moyli va yem-xashak o‘simliklar guruhiga ajratgan.

Madaniy o‘simliklarni tasniflashda N.I. Vavilov o‘z hissasini qo‘shdi. U madaniy o‘simliklarning tarqalishi va ahamiyatiga ko‘ra don ekinlari, dukkakli ekinlar, yem-xashak o‘simliklari, moyli, to‘quv, efir moyli o‘simliklar, poliz va tomorqa ekinlari, mevali daraxtlar, bozor ekinlari hamda bo‘yoqbop ekinlar guruhiga ajratadi.

S.Ye. Yerejepov [5] Qoraqalpog‘iston o‘simliklarini foydali xususiyatlarini o‘rganib, ularni 26 guruhga ajratgan va hududda yem-xashak o‘simliklarining ustunligini ko‘rsatgan.

Jayron ekomarkazi o‘simliklarini yem-xashak, asal shirali, dorivor, qurilishbop, vitaminli, zaharli, yoqilg‘i, oziqbop guruhlarga ajratdik va ular yuqorida konspektda keltirildi.

Ekomarkaz o‘simliklari orasida eng ko‘p tarqalgani yem-xashak o‘simliklari hisoblanadi. Ekomarkaz hududida yem-xashak o‘simliklari ko‘p tarqalgan

turkumlarga *Amaranthus*, *Atriplex*, *Chenopodium*, *Calligonum*, *Salsola*, *Strigosella*, *Astragalus* lar kiradi.

Yem-xashak o'simliklarini oilalar bo'yicha tahlil qilganimizda, ularning 35 ta oilada uchrashi ma'lum bo'ldi. Bunday o'simliklar ko'p uchraydigan oilalarga quyidagilar kiradi: Sho'radoshlar, Bug'doydoshlar, qoqio'tdoshlar, karamdoshlar, burchoqdoshlar, torondoshlar. Foydali xususiyatiga ko'ra yem-xashak o'simliklari eng yirik guruh hisoblanadi. Yem-xashak o'simliklari chorvachilikda va parrandachilikning asosiy ozuqasidir. Bu o'simliklarga *Amaranthus retroflexus*, *Alhagi pseudalhagi*, *Trigonella grandiflora*, *Artemisia turanica*, *Aeluropus repens*, *Stipagrostis pennata*, *Trigonella grandiflora*, *Karelinia caspia*, *Anisantha tectorum*, *Cynodon dactylon*, *Phragmites australis*, *Sorghum halepense*, *Heteroderis pusilla* va boshqa ko'pgina turlar kiradi.

Yem-xashak o'simliklari orasida qamish, ajriq, yantoq, kakra juda katta ahamiyatga ega. Yantoq turlari chorvachilik, qorako'lchilikning muhim ozig'i hisoblanib, yil davomida, asosan, yozda gullagan vaqtida va qishda ko'proq iste'mol qilinadi. U ekomarkazda yo'l, kanal, ariq, ko'l bo'ylarida, qumli tuproqlarda, toshli va gipsli tuproqlarda, ekilmay qolgan dalalarda, ochiq maydonlarda uchraydi. Uni mahalliy aholi kakra bilan birga qishga quruq massa sifatida g'amlaydi.

Qamish (*Phragmites australis*) asosiy yem-xashak o'simliklaridan hisoblanib, poya va barglari dag'allashguncha chorva mollari sevib iste'mol qiladi. Undan qishda qishloq xo'jaligi hayvonlari uchun qimmatli oziq sifatida foydalaniladi. Ekomarkazdagi hayvonlarning ozuqasi hisoblanadi. Shuningdek undan chorva mollari uchun pichan tayyorlanadi. Qurilish material sifatida ham foydalaniladi.

Ajriq (*Cynodon dactylon*) ariq, yo'l, kanal bo'ylarida, madaniy ekinlar orasida, tashlandiq yerlarda, yo'l bo'ylarida uchraydi. U qimmatli yem-xashak o'simligi bo'lib, yuqori ozuqabop hisoblanadi. Yil davomida ekomarkaz hayvonlari jayron, Prejevalskiy otlari va chorva mollari tomonidan iste'mol qilinadi.

Dorivor o'simliklar ham vohada keng tarqalgan. Foydali xususiyatiga ko'ra dorivor o'simliklar yem xashak o'simliklaridan keyingi o'rinda turadi. Bunday o'simliklarning voha florasi tarkibida 53 oila, 117 turkumga mansub 162 turi uchraydi. Viloyatda, shuningdek mazkur hududda dorivor o'simliklari haqida Ibn Sino asarlarida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, olim mazkur o'simliklarning tashqi tuzilishi, mahalliy nomlanishi va geografiyasi to'g'risida yozadi.

Bu guruh vakillari oilalar tarkibida uchrashi jihatidan Burchoqdoshlar, qoqio'ldoshlar, sho'radoshlar, bug'doydoshlar, torondoshlar oilalari tarkibida ko'p uchraydi. 25 ta oilada dorivorlik xususiyatga ega turlar soni 1 ta.

Hammamizga ma'lumki, dorivor o'simliklardan asrlar mobaynida odamlardagi turli xil kasalliklarni – qonni to'xtatish, og'iz bo'shlig'i, oshqozon-ichak, jigar, buyrak kasalliklarida, o't, siydik haydash, yara kasalliklarida, isitma pasaytirish, shamollash, teri va boshqalarni davolashda foydalanib kelingan.

Dorivor o'simliklar mahalliy aholi tomonidan xalq tabobatida va meditsinada keng foydalaniladi. Dorivor o'simliklarning *Roemeria hybrida*, *R. refracta*, *Portulaca oleracea*, *Spinacia turkestanica*, *Polygonum aviculare*, *Alhagi persarum*, *Halimodendron halodendron*, *Melilotus officinalis*, *Datura stramonium*, *Tribulus terrestris*, *Glycyrhiza glabra*, *Peganum harmala* kabi turlari ko'p uchraydi.

Dorivor o'simliklar tarkibida turli xil kimyoviy birikmalar –biologik faol moddalar, organik kislotalar, mineral moddalar, flavonoidlar, glikozidlar, alkaloidlar, saponinlar, kumarinlar va boshqa moddalar ko'plab uchraydi.

Mahalliy aholi bu o'simliklarning ildizi, poyasi, bargi, guli, mevasi va urug'idan uy sharoitida turli xil kasalliklarni davolashda, quritib ulardan damlama sifatida foydalanadi.

Ekomarkazda eng ko'p uchraydigan isiriq (*Peganum harmala*) ning quritilgan barg, meva va poyasidan gripp viruslarini nobud qilishda ko'p foydalaniladi. Isiriq qaynatmasidan og'izni chayqab zararsizlantiriladi. Urug'lari esa ba'zan sutga aralashtirib iste'mol qilinadi.

Shirinmiya ildizpoyasi ochiq havoda quritilib, undan sharbat tayyorlanadi. Sharbatidan nafas yo'llari kasalliklarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, me'da-ichaklarning yallig'lanishida ham foydalanadilar.

Asal shirali o'simliklar ekomarkazda 48 tur uchrab to'rtinchi o'rinni egallaydi. Bu o'simliklar 27 oila, 38 turkumga mansub. Asal shirali o'simliklarning ko'pchiligi ko'p yilliklarga (26 tur) to'g'ri keladi. .

Asal shirali o'simliklarni oilalar bo'yicha tahlil qilinganda, Burchoqdoshlar, Torondoshlar va Qoqio'tdoshlar oilasi tarkibida ko'p uchraydi. Qolgan oilalarda 1 tadan 3 tagacha asal beruvchi turlar uchradi.

Asal shirali o'simliklardan asalarilar propolis ham yig'adi. Asalari propolisdan, asosan, kataklarni qurishda mum sifatida foydalanadi. Bundan tashqari, uning tarkibida bakteriyalarni yo'q qiladigan moddalar ham mavjud. Propolisni ayrim o'simliklar kurtaklaridan, terak, igna bargli daraxtlar, kungaboqar yoriqlaridan oladilar. Propolis tarkibida 50-55% smola, 8-10% efir moyi, 30% ga yaqin mum uchraydi.

Bo'yoq beradigan o'simliklar guruhi voha florasida 21 oila, 28 turkumga mansub 32 turdan iborat. Bu guruhning vohada keng tarqalgan vakillariga *Chenopodium album*, *Tamarix hispida*, *Capparis spinosa*, *Abutilon theophrasti*, *Astragalus villosissimus*, *Glycyrrhiza glabra*, *Halimodendron halodendron*, *Goebelia alopecuroides*, *Zygophyllum oxyanum*, *Roemeria refracta*, *Peganum harmala* kabilar kiradi.

O'simliklardan olinadigan bo'yoqlar sun'iy bo'yoqlarga nisbatan chidamli bo'ladi. Bu bo'yoqlarning ayrimlari bilan ip, matolar bo'yalsa, boshqalari bilan oziq mahsulotlari bo'yaladi.

Zaharli o'simliklar guruhi ekomarkazda 37 turdan tashkil topgan. Shundan 21 turi begona o'tlar bo'lib, madaniy ekinlar orasida ko'plab uchraydi. Ayniqsa, hozirgi vaqtda zaharli o'simliklardan *Lolium temulentum* ko'plab bug'doy dalalarini zararlab hosilni 40-50% gacha kamaytirgani ma'lum bo'ldi. Bu o'simlik turi, asosan, shaxsiy tomorqa yerlarida ortib boryapti. Mazkur o'simlikning poya

va barglari zaharli emas. Uning donida lolin, lolinin, lolinidin kabi zaharli alkaloidlar bo'lganligi sababli doni zaharli hisoblanadi.

Oshlovchi o'simliklarning ekomarkazda 24 turi uchraydi. Bu o'simliklar Torondoshlar, Burchoqdoshlar va Yulg'undoshlar oilalarida keng tarqalgan. Vohada ko'p uchraydigan oshlovchi turlarga *Garhadiolus papposus*, *Cichorium intybus*, *Elaeagnus angustifolia*, *Alhagi pseudalhagi*, *Euphorbia anisopetala*, *Tamarix litwinowii*, *Populus pruinosa*, *Populus euphratica*, *Limonium meyeri*, *Limonium suffruticosum*, *Calligonum caput-medusae*, *Halimodendron halodendron*, *Tribulus terrestris* kabilar kiradi.

Ekomarkazda efir moyli o'simliklar ham muhim o'rin egallaydi. Ularning 21 turi uchraydi. Mazkur guruh o'simliklari qoqio'tdoshlar, ziradoshlar, yalpizdoshlar oilalari tarkibida keng tarqalgan. Boshqa oilalarda 1 tadan 2 tagacha efir moyli o'simliklar uchraydi. Ekomarkaz hududida efir moyli o'simliklardan *Allium sabulosum*, *Allium borszczowii*, *Iris longiscapa*, *Ziziphora tenuior*, *Lallemantia royleana*, *Thuspeinantha persica*, *Elaeagnus angustifolia*, *Erigeron Canadensis*, *Artemisia annua*, *Acroptilon repens*, *Ferula karelinii*, *Ferula foetida*, *Cuminum setifolium*, *Handelia trichophylla* va boshqalar kiradi.

Hozirgi vaqtda efir moyli o'simliklardan turli maqsadlarda foydalanib kelinyapti. Ayniqsa, u oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarishda asosiy xomashyo hisoblanadi. Hozirgi kunda efir moyli o'simliklarni respublikamizda 650 turi uchrashi aniqlangan [19].

Yoqilg'i sifatida *Haloxylon persicum*, *Calligonum caput-medusae*, *C. aphyllum*, *Tamarix bungei*, *T. androssovii*, *T. hispida*, *Alhagi kirghisorum*, *Karelinia caspia*, *Erianthus ravennae*, *Phragmites australis* turlari foydalaniladi.

Ozuqabop o'simliklar mazkur hududda kam tarqalgan. Ular ekomarkazda 16 oilaga mansub 25 turni tashkil qildi. Bular asosan yovvoyi va begona o't sifatida uchraydi. Ularning tarkibida oqsillar, uglevodlar, moylar, vitaminlar, mineral tuzlar va boshqa moddalar mavjud.

Bu o'simliklar keng tarqalgan oilalar *Chenopodiaceae*, *Brassicaceae*,

Fabaceae, *Poaceae*. Ozuqabop o'simliklarga *Portulaca oleracea*, *Spinacia turkestanica*, *Capsella bursa-pastoris*, *Elaeagnus angustifolia*, *Cichorium intybus*, *Ferula foetida*, *Lycium ruthenicum*, *Asperugo procumbens*, *Echinochloa crus-galli*, *Digitaria sanguinalis* lar kiradi.

Bu foydali guruhlardan tashqari, ayrim o'simliklar qumni mustahkamlashda ham ishtirok etadi. Ular qumlarni ko'chishdan, eroziyadan saqlaydi. Bunday o'simliklarga *Ephedra strobilacea*, *Acanthophyllum pungens*, *Salsola arbuscula*, *Calligonum caput-medusae*, *C. microcarpum*, *Astragalus villosissimus*, *Heliotropium arguzioides*, *Carex physodes*, *C. pachystylis*, *Stipagrostis karelinii* va boshqalar kiradi.

Xulosa

1. Jayron ekologik markazining florasi 46 oila 182 turkumga mansub 267 tur yuksak o'simliklardan iborat ekanligi aniqlandi. Ekomarkaz florasi cho'l floralari xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan.

2. Jayron ekomarkazi florasidagi yetakchi oilalarning spektri 186 turni (floraning 66,9%) tashkil qildi. *Asteraceae*, *Poaceae* *Chenopodiaceae*, *Brassicaceae* va *Fabaceae* tashkil qildi. Bu holat boshqa cho'l floralarida ham kuzatilgan.

3. Jayron ekomarkazi florasining yetakchi turkumlari *Astragalus* (13; 4,9%), *Cousinia* (6; 2,2%), *Lepidium* (4; 1,5%), *Strigosella* (4; 1,5%), *Euphorbia* (4; 1,5%), *Zygophyllum* (4; 1,5%), *Lactuca* (4; 1,5%), *Convolvulus* (4; 1,5%), *Eremopyrum* (4; 1,5%) kabilar hisoblanadi. Bu turkumlar jami turlarning 17,6% ini (47 tur) tashkil qildi.

4. Jayron ekomarkazi uchun ilk bor *Bunium chaerophylloides* (Regel et Schmalh.) Drude. *Gypsophyla pilosa* Huds. *Handelia trichophylla* (Schrenk) Heimerl., *Stizolophus balsamita* (Lam.) K. Koch., *Centaurea solstitialis* L., *Carthamus turkestanicus* Popov turlar keltirildi.

5. Ekomarkaz florasi tarkibida endem taksonlar (subendemlar bilan birga) 20 tur uchrashi aniqlandi. Bu esa Jayron ekomarkazining Buxoro viloyati o'simliklar genofondini saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 11. Arslonov M.T., Nabiev M.M., Pratorov O'.P. O'zbekiston begona o'tlarining zamonaviy tizimi va qo'sh (binar) nomlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – 95 b.
2. 1. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 264 b.
3. 23. Гафуров К.Г. Почвы Каракульского оазиса и их агрохимическая характеристика. – Ташкент: Фан, 1976. – 100 с.
4. 36. Джуракулов М.Д., Мамедов Э.Д. Геология археологических памятников Зерафшана. – Ташкент: Укитувчи, 1986. – 138 с.
5. 16. Ережепов С.Е. Флора Каракалпакии, ее хозяйственная характеристика, использование и охрана. – Ташкент: Фан, 1978. – 240 с.
6. 5. Мардонов Б. Воздействие Джейрана на растительный покров пустыне. Автореф. дис. ... канд. биол.наук. – Москва, 1993. – 25 с.
7. 57. Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро. –Тошкент: Фан, 1991. – 52 б.
8. 59. Набиев М.М. Казакбаев Р.Ю. Определитель декоративных деревьев и кустарников Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1975. – 160 с.
9. 60. Nazarov I.K., Allayorov I.Sh. Buxoro geografiyasi. – Buxoro: Universitet, 1994. – 66 b.
10. 62. Niyozov A.B., Hasanov I.B. Buxoro ekologiyasi va tabiiy davolanish maskanlari. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2010. – 164 b.
11. 65. Nurov U.N. Buxoro viloyati iqlimi va uning resurslari. – Buxoro: Universitet, 1996. – 44 b.
12. 8. Определитель растений Средней Азии. 11 т. – Tashkent: Fan, 2015.
13. 17. Сарибаев Б. Флора и растительность плато Устюрт и перспективы их использования: Дис. ... докт. биол. наук. – Ташкент, 1994. – 274 с.
14. 14. Serekeeva G.A. Bukantog' florasi. Dis. ... kand. biol. nauk. – Tashkent, 2012. – 121 b.
15. 18. Туремуратов У. Растительный покров северо-западных кызылкумов. – Ташкент: Фан, 1978. – 276 с.
16. 13. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi". 2-tomda. – Toshkent: Chinor ENK, 2009. T.1. – 360 b.
17. 4. Файзиев А., Салимов Х, Назаров И.К. Материале к флоре Бухарского специализированного питомника по выращиванию Джейранов. // Культурные и дикорастущие растения Бухарского оазиса. Ташкент. 1986. с. 21-26.
18. 2. Fayziev A., Esanov H., Fayzieva F. Jayron ekomarkazi endem o'simliklari. O'zbekiston florasi bioxilma-xilligi va undan oqilona foydalanish muammolari. Respublika ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand. 2011. 38-39 b.

19. 104. Хожиматов К. Эфирномасличные растения Узбекистана и пути их рационального использования. Автореф. дис. ... докт. биол. наук. – Ташкент, 1999. – 110 с.
20. 105. Xoliqov K. O‘zbekiston janubidagi dorivor o‘simliklar. – Toshkent: Mehnat, 1992. – 80 b.
21. 106. Xolmatov H.X., Qosimov A.I. Dorivor o‘simliklar. – Toshkent: Ibn Sino, 1994. – 368 b.
22. 15. Шербаев Б. Флора и растительность Каракалпакии. – Нукус: Каракалпакстан, 1988. – 304 с.
23. 6. Щербаков А.В., Майоров С.Р. Инвентаризация флоры и основы гербарного дела (Методические рекомендации). – Москва: Товарищество научных изданий КМК, 2006. – С.48.
24. 7. Юрцев Б.А. Программа сравнительно флористических исследований. В кн. Теоритические вопросы сравнительной флористики. – Л.: Наука, 1987. – С. 156-198.
25. 10. Brummit R.K., Powell C.E. Authors of plant names. – Kew: Royal Botanic Gardens, 1992. – 732 p.
26. 9. <http://www.ipni.org>. International plants Name Index.
27. 3. [www. ecocenter.uz/uz](http://www.ecocenter.uz/uz)
28. 12. Takhtajan A. Diversity classification of flowering plants. – New York: Columbia University Press, 1997. – 643 p.

Ilovalar



1-rasm. *Leontice eversmannii*



2-rasm. *Consolida camptocarpa*



3-rasm. *Ceratocephala falcata*



4-rasm. *Papaver pavoninum*



5-rasm. *Roemeria hybrida*



6-rasm. *Roemeria refracta*



7-rasm. *Acanthophyllum pungens*



8-rasm. *Silene nana*



9-rasm. *Halimocnemis macrantha*



10-rasm. *Anabasis turkestanica*



11-rasm. *Atriplex dimorphostegia*



12-rasm. *Chenopodium glaucum*



13-rasm. *Salsola paulsenii*



14-rasm. *Spinacia turkestanica*



15-rasm. *Calligonum caput-medusae*



16-rasm. *Calligonum leucocladum*



17-rasm. *Limonium meyeri*



18-rasm. *Psylliostachys anceps*



19-rasm. *Eruca sativa*



20-rasm. *Isatis violascens*



21-rasm. *Psylliostachys leptostachya*



22-rasm. *Astragalus chiwensis*



23-rasm. *Ammothamnus lehmannii*



24-rasm. *Populus pruinosa*



25-rasm. *Reaumuria turkestanica*



26-rasm. *Astragalus unifolius*



27-rasm. *Smirnovia turkestanica*



28-rasm. *Sophora alopecuroides*